

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**UMUMXALQ BAYRAMLARINING JAMIYAT
TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI**



USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent-2026

UO‘K
KBK
T.

Mualliflar

A.Tashanov, K.To‘rayev, N.Husanova

Mas’ul muharrir:

M.Quronov

Pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

A.Mavrulov

tarix fanlari doktori, professor

O.Nishonova

falsafa fanlari doktori, professor

Qo‘llanma mamlakatimizda umumxalq bayramlarini zamon talablari va davr mohiyati, o‘z asl mazmuni va shakli bilan tashkil etish, ularning g‘oyaviy-ma‘naviy ahamiyati, tarixiy shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini qisqacha tarzda ochib berishni maqsad qilgan. Qo‘llanma rahbarlar, targ‘ibotchi va pedagoglar bayramlarning maqsadli va tizimli tashkil etilishini ta‘minlash, ularning jamiyatda ijtimoiy va ma‘naviy ta‘sirini kuchaytirish, bayramlarning yoshlarda vatanparvarlik, milliy g‘urur va ma‘naviy fazilatlarni yuksaltirishga qaratilgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutiladi.

Qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 824-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekistonda bayramlarning g‘oyaviy-ma‘naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish konsepsiyasini samarali amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ning 71-bandiga muvofiq ishlab chiqildi.

ISBN

© “Ma‘naviyat” nashriyoti, 2025-y.



Kelgusi yilda ma'naviyat sohasini yanada rivojlantirib, ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi muhim sanalarni keng nishonlaymiz. Jumladan, barcha yutuq va g'alabalarimizning poydevori bo'lgan Vatanimiz mustaqilligining shonli 35-yilligini katta bayram sifatida o'tkazamiz.

Shuningdek, Sohibqiron Amir Temur, Mir Alisher Navoiy bobolarimizning qutlug' tavallud ayyomlariga tayyorgarlikni hozirdan boshlashimiz kerak. Bunday ulug' sanalarni yuksak darajada, har tomonlama munosib o'tkazish uchun albatta tegishli qarorlarni qabul qilamiz. Ularni amalga oshirishda mahallalar, ta'lim-tarbiya maskanlari, mehnat jamoalari, ziyolilarimiz, xorijdagi elchixonalarimiz, umuman, butun xalqimiz faol ishtirok etadi, deb ishonaman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan

Muqaddima

Zamonaviy dunyoda kurash faqat hudud yoki iqtisod uchun emas, balki inson ongi, qalbi va qadriyatlari uchun kechmoqda. Axborot oqimlari mislsiz tezlikda kengayib borayotgan bir paytda turli g'oyalar, qarashlar va mafkuraviy ta'sirlar inson dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Natijada jamiyat barqarorligi endi faqat moddiy omillar bilan emas, balki uning ma'naviy tayanchi, umumiy qadriyatlari va milliy o'zligi bilan belgilanadi.

Ana shunday sharoitda milliy qadriyatlarni asrash, jamiyatda ma'naviy birlikni ta'minlash va avlodlar o'rtasida ma'naviy uzviylikni saqlab qolish davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda jamiyatga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-ma'naviy mexanizmlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular orasida bayramlar eng ta'sirchan va ommaviy shakllardan biri sifatida ajralib turadi.

Boisi, **“bayram”** bu shunchaki dam olish kuni emas. U xalqning xotirasi, milliy g'ururi, umumiy maqsad va birlik tuyg'usini uyg'otadigan kuchli ma'naviy maydon hisoblanadi.

Aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 824-son qarori bilan **“O'zbekistonda bayramlarning g'oyaviy-ma'naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish konsepsiyasi”** tasdiqlandi. Ushbu hujjat bayramlarning mohiyatini yangicha anglashga yo'l ochib, ularni jamiyatni birlashtiruvchi, milliy o'zlikni mustahkamlovchi va inson qalbiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim g'oyaviy-mafkuraviy vosita sifatida belgilab berdi.

Ushbu konsepsiyaning eng muhim jihati shundaki, u bayramlarni tashqi shakl yoki marosim darajasida emas, balki mazmun darajasida boyitishni nazarda tutadi. Ya'ni har bir bayram ortida turgan g'oya, qadriyat va ma'no-mazmun ochib berilishi lozim. Sababi, mazmunsiz tashkil etilgan tadbir ta'sir ko'rsatmaydi, g'oyasiz bayram esa insonlarni birlashtirish qudratiga ega bo'lmaydi. Mazkur yondashuv amaliyotda aniq tizim orqali ta'minlangan.

Xususan, hujjatga muvofiq O'zbekistondagi bayramlar to'rt toifaga ajratilgan:

birinchisi – umumxalq bayramlari;

ikkinchisi – muhim sanalar;

uchinchisi – kasb bayramlari;

to'rtinchisi – xalqaro kunlar munosabati bilan tashkil etiladigan bayramlar.

Albatta, bu tasnif jamiyat hayotining barcha qatlamlarini qamrab olishga xizmat qiladi. Umumxalq bayramlari millatni birlashtiradi va umummilliy ruhni kamol toptirishga xizmat qiladi. Muhim sanalar tarixiy xotirani mustahkamlaydi va avlodlar uzviyligini ta'minlaydi. Kasb bayramlari yosh avlodda kasb-hunarga bo'lgan mehr-muhabbatni, mehnat qadri va jamiyat a'zolarida mas'uliyat hissini

kuchaytiradi. Xalqaro kunlar esa jamiyatni global jarayonlar bilan uyg'unlashtirib, ochiq va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

Shu tariqa bayramlar targ'ibotning epizodik emas, balki tizimli va kompleks vositasiga aylanadi. Konsepsiyada belgilangan vazifalar bayramlarning mazmun-mohiyatini chuqur ochib berish, ularning g'oyaviy ta'sirchanligini oshirish hamda zamonaviy media va raqamli imkoniyatlar orqali keng ommalashtirish orqali targ'ibot ishlarini yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutadi. Bu esa targ'ibotchidan faqat tadbirlarni tashkil etishni emas, balki inson ongi va qalbiga ta'sir qila oladigan mazmun yaratishni talab qiladi.

Bugungi sharoitda bayramni o'tkazish bu shunchaki ssenariyni bajarish emas, balki uning g'oyaviy mazmun-mohiyatini yetkazish, qadriyatlar qadrsizlanayotgan davrda murakkab vazifaga aylanmoqda. Endilikda natija so'zlar, obrazlar va muhit orqali inson qalbi hamda ruhiga ta'sir qila olish darajasi bilan belgilanadi. Agar bu jarayon puxta o'ylanmasa, bayram o'tadi, biroq uning ta'siri sezilmaydi. Aksincha, u mazmunli va maqsadli tashkil etilsa, insonda milliy g'urur uyg'otadi, birlik hissini kuchaytiradi va Vatanga daxldorlik tuyg'usini shakllantiradi.

O'zida aynan shu maqsadlarni mujassam etgan ushbu uslubiy qo'llanma targ'ibotchilar, pedagoglar, tashkilotchilar hamda keng jamoatchilik vakillari uchun amaliy yo'l xaritasi sifatida ishlab chiqildi. Unda bayramlarni tashkil etish va o'tkazishda g'oyaviy mazmunni qanday shakllantirish, uni auditoriyaga qanday yetkazish, shuningdek, zamonaviy usul va vositalardan qanday foydalanish bo'yicha aniq yondashuvlar bayon etilgan.

Zero, uslubiy qo'llanmaning asosiy maqsadi – bayramlarni jamiyatni birlashtiruvchi, insonni ruhlantiruvchi va milliy qadriyatlarni mustahkamlovchi kuchli ma'naviy omilga aylantirishdan iborat. Boisi, bir haqiqat bor: inson ongini kim shakllantirsa, ertangi jamiyatni o'sha boshqaradi. Demak, bayramlar bu shunchaki tadbir emas, balki millat kelajagiga ta'sir qiluvchi strategik mafkuraviy jarayon bo'lib, ertangi kun egalari bo'lgan yosh avlodni o'zbek milliy ruhiyati asosida kamol toptirishga xizmat qiluvchi dasturiy-amaliy vazifani bajaradi.

1 yanvar – Yangi yil bayrami

Inson hayotida vaqtni belgilaydigan sanalar ko‘p, ammo ularning barchasi ham insonni o‘ylashga, o‘zini baholashga va ichki dunyosiga murojaat qilishga undayvermaydi. Yangi yil ana shunday noyob palla bo‘lib, u shunchaki kalendar o‘zgarishi emas, balki insonning o‘z hayotiga munosabatini qayta ko‘rib chiqishga majbur etadigan ma’naviy-ruhiy jarayonni ifodalaydi. Yil yakuniga yetar ekan, inson o‘tgan davrni xotirlab, o‘z yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qiladi, qabul qilgan qarorlarining natijasi haqida o‘ylaydi va shu asosda yangi maqsadlar belgilashga intiladi. Bu jarayon inson ongida mas’uliyat, o‘zgarishga tayyorlik va kelajakni ongli ravishda qurish ehtiyojini shakllantiradi.

Shu ma’noda Yangi yilning mazmun-mohiyati faqat vaqt almashinishida emas, balki insonning ichki yangilanishi, o‘zligini anglashi va hayotga nisbatan faol pozitsiyasini qayta belgilashida namoyon bo‘ladi. U insonda umid, ishonch va yangicha fikrlashga intilishni uyg‘otadi, kelajakni tasodif emas, balki maqsadli harakatlar orqali barpo etish g‘oyasini mustahkamlaydi. Ana shu jihati bilan Yangi yil ijtimoiy tadbir doirasidan chiqib, inson ongi va jamiyat ruhiyatiga ta’sir etuvchi muhim ma’naviy-mafkuraviy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Yangi yil bayramining maqsadi – ishtirokchilarda o‘tgan yil faoliyatini tahlil qilish, kelgusi davr uchun aniq shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarni belgilash, shu orqali mas’uliyat, rejalashtirish ko‘nikmasi va faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, bayram orqali yoshlarda ijobiy fikrlashni mustahkamlash, ularni o‘z ustida ishlashga yo‘naltirish hamda jamoada o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini kuchaytirish ko‘zda tutiladi.

Vazifasi esa quyidagilardan iborat:

- ishtirokchilarda o‘tgan yil faoliyatini tahlil qilish va shaxsiy xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantirish;
- kelgusi yil uchun aniq, real va amalga oshiriladigan maqsadlarni belgilash hamda ularga erishish rejasini ishlab chiqishga yo‘naltirish;
- yoshlarda shaxsiy mas’uliyat, intizom va o‘z ustida ishlash madaniyatini rivojlantirish orqali faol hayotiy pozitsiyani mustahkamlash;
- jamoada o‘zaro hurmat, hamjihatlik va ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirish orqali birlik va hamkorlik qadriyatlarini kuchaytirish.

Yangi yilning tarixiga bir nazar...



Yangi yil bayramining tarixi insoniyatning vaqtga bo'lgan munosabati va uni anglash darajasi bilan uzviy bog'liq. Ilk sivilizatsiyalar davrida inson vaqtni abstrakt tushuncha sifatida emas, balki tabiat bilan uyg'un holda qabul qilgan. Shu sababli yil boshi ko'p hollarda bahor fasliga to'g'ri kelgan, chunki tabiat uyg'onishi yangi hayot, yangilanish va davomiylik ramzi sifatida talqin etilgan. Qadimgi Bobilda Yangi yil aynan shu davrda nishonlangan bo'lib, u oddiy

tantana emas, balki diniy va ijtimoiy marosimlar bilan uyg'unlashgan holda inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni ifoda etgan. Bu davrda vaqtni anglash insonning tabiat bilan bog'liqligi orqali shakllangan bo'lib, hayot davomiyligi va yangilanish g'oyasi markaziy o'rin egallagan.

Jamiyat taraqqiyoti bilan vaqtga munosabat ham o'zgarib bordi. Davlatchilik va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi vaqtni aniq va tizimli hisoblashni talab qildi va bu ehtiyoj Qadimgi Rimda Yuliy Sezar tomonidan yangi taqvim joriy etilishi bilan hal etildi. Shu tariqa yil boshi 1 yanvar sifatida belgilandi va vaqtni anglash yangi bosqichga ko'tarildi. "Yanvar" atamasining Yanus timsoli bilan bog'liqligi esa ushbu sananing chuqur ma'naviy mazmuniga ishora qiladi: uning ikki yuzi o'tmish va kelajak o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglatib, insonni tajribaga tayanib harakat qilishga undaydi. Keyingi davrlarda bayram mazmuni yanada boyib, diniy, madaniy va ijtimoiy qatlamlarni o'z ichiga oldi va natijada Yangi yil umuminsoniy qadriyatlarni ifoda etuvchi global hodisaga aylandi. Bugungi kunda u nafaqat vaqt almashinishini, balki yangilanish, mas'uliyat va kelajakka ongli munosabat g'oyalarini o'zida mujassam etgan muhim ma'naviy-mafkuraviy institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

DUNYO DAVLATLARIDA NISHONLANISH XUSUSIYATLARI

Yangi yil har bir xalqda o'ziga xos tarzda nishonlanadi. Bu farqlar madaniyat, an'ana va hayot tarzi bilan bog'liq. Biroq barchasida umumiy bir holat bor – insonlarni birlashtirishdan iborat.

AQShda bayram ommaviy tusga ega. Nyu-York shahrida minglab odamlar bir joyga to'planib, yangi yilni birgalikda kutib oladi. Bu jarayon odamlarda umumiylik hissini kuchaytiradi.



Yevropa mamlakatlarida bayram ko‘proq oilaviy muhitda o‘tadi. Fransiya va Germaniyada odamlar yaqinlari bilan bir dasturxon atrofida jam bo‘lib, bir-biriga tilaklar bildiradi. Bu an‘ana munosabatlarni mustahkamlaydi.

Yaponiyada Yangi yil boshqacha ruhda o‘tadi. Bu yerda shovqindan ko‘ra sukut, tafakkur muhim. Odamlar o‘tgan yilni tahlil qiladi, uyini tozalaydi, yangi davrni pok holda boshlashga harakat qiladi.

Xitoyda esa bayram juda jonli va rang-barang o‘tadi. Ajdarho raqslari, feyerverklar, ramziy an‘analar orqali farovonlik tilaklari bildiriladi. Bu yerda jamoaviylik kuchli namoyon bo‘ladi.

Braziliya, Ispaniya va Rossiyada ham turli an‘analar mavjud. Biroq ularning barchasida bir umumiy ma‘no bor – insonlarga ijobiy kayfiyat berish va kelajakka ishonch uyg‘otishga qaratilgan tadbirlar keng targ‘ib qilinadi.

O‘ZBEKISTONDA NISHONLANISHI



O‘zbekistonda Yangi yil nafaqat taqvimiy sana, balki jamiyatda mehr-oqibat, saxovat va insonparvarlik qadriyatlarini uyg‘otuvchi muhim ma‘naviy hodisa sifatida shakllangan. Bayram arafasida shahar va qishloqlarning bezatilishi, markaziy maydonlarda archalar o‘rnatilishi, turli madaniy tadbirlar va konsert dasturlarining tashkil etilishi aholida ijobiy kayfiyatni mustahkamlaydi. Ayniqsa, “Prezident archasi” kabi tadbirlar orqali ehtiyojmand

bolalarga ko‘rsatilayotgan e‘tibor, ularga sovg‘alar ulashish, sahnaviy tomoshalar uyushtirish kabi ishlar jamiyatda mehr-muruvvat muhitini kuchaytiradi. Bu jarayonlar insonni faqat bayramni nishonlashga emas, balki boshqalar dardiga befarq bo‘lmaslikka, ezgu amallar qilishga undaydi.

Shu jihatdan Yangi yil bayrami jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi, insonlarni yaqinlashtiruvchi va ma‘naviy muhitni barqarorlashtiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mahalla va oila doirasida o‘zaro bordi-keldi, xayriya va ehson ishlarining ko‘payishi, ayniqsa kam ta‘minlangan qatlamlarga ko‘mak ko‘rsatish orqali amaliy mazmun kasb etadi. Bu esa bayramni oddiy tantanadan yuqori darajadagi insonparvarlik, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas‘uliyatni targ‘ib etuvchi mafkuraviy vositaga aylantiriladi. Yangi yil shu ma‘noda jamiyatda ezgulikni institutsionallashtiruvchi, mehr va saxovatni hayotiy me‘yor sifatida mustahkamlovchi kuchli ma‘naviy platforma vazifasini bajaradi.

G'OYAVIY AHAMIYATI...

Yangi yil insonni o'z hayotini qayta baholashga, o'tgan davrni tahlil qilib, kelajakni ongli ravishda belgilashga undaydigan muhim ma'naviy palla hisoblanadi, bu esa shaxsda maqsadga yo'nalganlik, ichki intizom va o'zgarishga intilishni kuchaytirib, mas'uliyat va ishonchni mustahkamlaydi; shu bilan birga, bayram jamiyatda insonlar o'rtasidagi yaqinlikni oshirib, hamjihatlik va ijobiy ruhiy muhitni shakllantiradi, natijada u inson va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytiruvchi, kelajakka ishonch va birlik g'oyalarini targ'ib etuvchi muhim ma'naviy-mafkuraviy omil sifatida namoyon bo'ladi.



“MA’NAVIY SAYOHAT” FORMATIDAGI BAYRAM SSENARIYSI

Bayramni oddiy konsert yoki dasturxon bilan cheklamasdan, uni mazmunli “sayohat” shaklida tashkil etish samarali bo'ladi. Masalan, tadbir davomida ishtirokchilar turli mamlakatlar yoki madaniy bosqichlar bo'ylab “sayohat” qiladilar – har bir bosqichda o'sha xalqning Yangi yil an'analari namoyon etiladi. Bu jarayonda Yangi yilning turli mamlakatlardagi nishonlanishi sahnalashtirilgan chiqishlar, milliy musiqa va taomlar orqali ko'rsatiladi. Shu usul ishtirokchilarda qiziqishni oshiradi, ularning dunyoqarashini kengaytiradi va bayramni ma'rifiy tusga ega qiladi. Bunday interaktiv yondashuv bayramni faqat tomosha emas, balki faol ishtirok maydoniga aylantiradi.

“YANGI MAQSADLAR VA QADRIYATLAR” REFLEKSIYA PLATFORMASINI SHAKLLANTIRISH



Orzular daraxti
(refleksiya va maqsadlar platformasi)

Yangi yilni faqat xursandchilik bilan emas, balki shaxsiy va ijtimoiy tahlil bilan bog'lash ham muhim. Shu maqsadda bayram doirasida maxsus “refleksiya zonasi” tashkil etish mumkin, bu yerda ishtirokchilar o'tgan yildagi yutuqlari, xulosalari va kelgusi rejalarini yozib qoldiradilar. Masalan, “orzu daraxti” yoki “maqsadlar devori” kabi ijodiy elementlar orqali har bir kishi o'z niyatlarini ifoda etadi. Bu jarayon o'z-o'zini anglash, shaxsiy rivojlanishni rag'batlantirish, ko'ngilochar tadbirlar bilan birga, tarbiyaviy va ilhomlantiruvchi ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Yangi yil bayramini mazmunli va tarbiyaviy ruhda nishonlashga qaratilgan ushbu tavsiyalar amaliyotda qo'llanilishi lozim. Barcha tadbirlar reja asosida tashkil etilishi ta'lim, madaniyat va oila o'rtasida hamkorlik ta'minlashi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashuvi hamda yosh avlodda ongli munosabat shakllanishi bayram jamiyatda ijobiy muhit yaratishga xizmat qiladi.

8-MART – XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI



Jamiyatning barqaror rivoji va ma'naviy yuksalishi ayollarning faolligi, fidoyiligi hamda ijtimoiy ishtiroki bilan uzviy bog'liq. **8-mart** – **Xalqaro xotin-qizlar kuni** aynan shu haqiqatni ifodalaydigan, ayollarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini yuksak darajada e'tirof etuvchi muhim sanadir. Bu kun ayolning faqat oila doirasidagi emas, balki davlat va jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos

hissasini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bayram mazmunida hurmat, ehtirom va minnatdorlik tuyg'ulari mujassam bo'lib, unda ayollarning mehnati, sabr-toqati va ijtimoiy faolligi qadrlanadi, natijada insoniy munosabatlar mustahkamlanib, o'zaro hurmat va e'tibor madaniyati yanada rivoj topadi.

Bayramning maqsadi

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni jamiyatda ayollarning o'rni va rolini e'tirof etish, ularning huquq va imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy faolligini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Bayram orqali ayollarga nisbatan hurmat va e'tibor madaniyatini mustahkamlash, tenglik va adolat tamoyillarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Shu bilan birga, ushbu sana yoshlar ongida ayolga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini to'g'ri anglashiga yordam beruvchi muhim tarbiyaviy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bayramning vazifalari

Bayram doirasida ayollarga nisbatan hurmat va ehtirom tuyg'ularini shakllantirish, ularning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga ko'maklashish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ayollarning turli sohalardagi yutuqlarini keng targ'ib etish, yoshlar ongida ijtimoiy faollik va mas'uliyat hissini kuchaytirish, qizlarda liderlik va tashabbuskorlik fazilatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Turli sohalarda faoliyat olib borayotgan yetakchi ayollarni rag'batlantirish, shuningdek, oilada va jamiyatda ayolga bo'lgan e'tibor va qadriyatlarni mustahkamlash, tenglik hamda o'zaro hurmat tamoyillarini qaror toptirish ham muhim vazifalar qatoriga kiradi.

BAYRAMNING KELIB CHIQISHI VA SHAKLLANISH TARIXI

Ayollarga nisbatan og'ir mehnat sharoitlari, past ish haqi va huquqiy tengsizlik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida keng norozilik harakatlariga sabab bo'lgan. Sanoatlashuv jarayonida fabrikalarda ishlayotgan ayollar o'z huquqlari uchun kurash boshlaydi. Xususan, 1908-yilda Nyu-York shahrida ish vaqtini qisqartirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda saylov huquqini talab qilgan ayollar namoyishi bu jarayonning muhim bosqichlaridan biri sifatida tarixda qolgan.



1910-yilda Kopengagen shahrida o'tgan xalqaro konferensiyada Klara Setkin ayollar kunini joriy etish g'oyasini ilgari suradi. 1911-yildan boshlab bu sana Yevropaning bir qator davlatlarida nishonlana boshlaydi va ayollar huquqlari yo'lidagi kurash ramziga aylanadi. Keyingi bosqichda 1917-yilda Rossiyada "non va tinchlik" shiori ostida o'tgan chiqishlar tarixiy burilish yasaydi. Vaqt o'tishi bilan sana xalqaro darajada e'tirof etilib, 1975-yilda BMT tomonidan rasman tan olinadi. Bugungi kunda u ayollarning huquqlari, jamiyatdagi o'rni va tengligini ifodalovchi muhim ijtimoiy hodisa sifatida keng nishonlanadi.

DUNYO DAVLATLARIDA NISHONLANISH XUSUSIYATLARI



Turli mamlakatlarda ushbu sana nishonlanish shakli ularning tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy tuzilishi va gender siyosatiga qarab farqlanadi. Ayrim davlatlarda u ayollar huquqlari uchun kurash va ijtimoiy tenglik g'oyalarini ilgari suruvchi siyosiy-ijtimoiy platforma sifatida shakllangan bo'lsa, boshqa hududlarda ko'proq madaniy va ma'naviy mazmunga ega bayram sifatida qaror topgan.

G'arb davlatlarida, xususan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida bu sana doirasida gender tenglik, mehnat huquqlari, siyosiy ishtirok va ijtimoiy adolat masalalari keng muhokama qilinadi. Turli forumlar, jamoatchilik aksiyalari va ilmiy anjumanlar orqali ayollarning jamiyatdagi o'rni qayta tahlil qilinadi. Bu yondashuv bayramni faqat tantanaviy emas, balki muammolarni ochiq muhokama qiluvchi ijtimoiy maydonga aylantiradi.

MDH davlatlarida esa nishonlash ko'proq ijtimoiy-madaniy xarakterga ega bo'lib, ayollarga e'tibor ko'rsatish, ularni e'zozlash va qadrlash an'analari ustunlik qiladi. Bu hududda bayramning hissiy va ma'naviy jihati kuchli namoyon bo'ladi.

Osiyo mamlakatlarida, jumladan, Xitoyda ayollarga qisqartirilgan ish kuni berilishi kabi amaliy choralar qo‘llanadi. Bu esa bayramning ijtimoiy siyosat bilan uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, turli davlatlarda nishonlanish shakllari turlicha bo‘lsa-da, ularning barchasini ayollarning jamiyatdagi o‘rni va huquqlarini e‘tirof etish g‘oyasi birlashtirib turadi.

O‘ZBEKISTONDA NISHONLANISHI

Yurtimizda ushbu sana keng qamrovda, yuqori saviyada va an‘anaviy tarzda nishonlanadi. Bayram munosabati bilan davlat darajasida tantanali marosimlar o‘tkazilib, mamlakat rahbari tomonidan turli sohalarda samarali faoliyat olib borayotgan, yuksak natijalarga erishgan xotin-qizlar davlat mukofotlari, faxriy unvonlar, rag‘batlantiruvchi sovg‘alar bilan taqdirlanadi.



Bayram kunlari ayollarga bag‘ishlangan konsert dasturlari, madaniy tadbirlar va uchrashuvlar tashkil etilib, ularda ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va hissassi keng yoritiladi.

Ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida – maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, umumta‘lim maktablari, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, ochiq darslar va ijodiy chiqishlar o‘tkaziladi. Shuningdek, mahallalarda, davlat va nodavlat tashkilotlarda, turli idora va muassasalarda bayram tadbirlari tashkil etilib, xotin-qizlarga hurmat va e‘tibor ko‘rsatish an‘analari mustahkamlanadi. Ayniqsa, oilada ayollarga bo‘lgan hurmat va ehtirom yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Aziz opa-singillarimizga yaqinlari tomonidan e‘tibor ko‘rsatish, onalar, opa-singillar va buvilarga samimiy tabriklar yo‘llash hamda g‘amxo‘rlik qilish orqali mehr-oqibat muhiti yanada mustahkamlanadi. Ushbu sana jamiyatda hurmat, birdamlik va insoniy qadriyatlarni qaror toptiruvchi muhim ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

G‘OYAVIY AHAMIYATI

Xotin-qizlar kunining g‘oyaviy ahamiyati jamiyatda ayolga bo‘lgan munosabatni shakllantirish va uning o‘rni hamda nufuzini chuqur anglashga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Bu sana orqali ayol obrazi matonat, fidoyilik va mas‘uliyat timsoli sifatida qaror topib, yoshlar ongida ayollarga nisbatan hurmat va qadrlash tuyg‘usini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, qizlarda o‘ziga ishonch,

tashabbuskorlik va liderlik fazilatlarini rivojlanib, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglash darajasi ortadi.

YODDA TUTING!

8-mart – Xotin-qizlar kunining g'oyaviy-metodik asosi ayollarning ijtimoiy faolligi orqali jamiyat barqaror rivojiga hissa qo'shish g'oyasiga tayanadi. Ushbu sana ayollarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rnini anglatib, yoshlar ongida hurmat, mas'uliyat va faollik qarashlarini shakllantiradi.

Tarixiy va zamonaviy ayollar misolida yetakchilik va tashabbuskorlik targ'ib qilinib, interaktiv yondashuvlar orqali, ayniqsa qizlarda mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalari rivojlantirib, xotin va qizlarimizda shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy faollikni kuchaytiruvchi samarali tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi.

Bayram ssenariysi hamda tashkiliy-metodik tavsiyalar

Bosqich	Yo'nalish	Mazmuni	Tashkiliy-metodik talablar va izohlar
Kirish qismi	Tashkiliy kirish	Ishtirokchilarni bayram bilan qutlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini haqida kirish nutqi	Nutq qisqa, mazmunli va auditoriyaga mos bo'lishi lozim
Asosiy qism	Tarixiy yo'nalish	Ayollarning tarixdagi o'rnini sahna ko'rinishi yoki ma'lumotlar orqali yoritiladi	Tarixiy misollar ishonchli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak
	Zamonaviy yo'nalish	Turli sohalarda faoliyat yuritayotgan ayollarning yutuqlari ochib beriladi	Real hayotiy misollar, videoroliklar bilan boyitish tavsiya etiladi
	Yoshlar yo'nalishi	O'quvchi va talaba yoshlar chiqishlari, kelajak qarashlari	Yoshlar faolligini oshirishga qaratilgan interaktiv usullar qo'llanadi
	Rag'batlantirish	Faol xotin-qizlarni taqdirlash va e'tirof etish marosimi	Rag'batlantirish ochiq va motivatsion ruhda tashkil etilishi zarur
	Madaniy chiqishlar	Qo'shiq, raqs, sahna ko'rinishlari	Badiiy chiqishlar tadbir mazmuniga mos va estetik jihatdan uyg'un bo'lishi lozim
Yakuniy qism	Xulosa	Yakuniy nutq, minnatdorlik va tilaklar	Qisqa, ta'sirli va umumlashtiruvchi xulosa berilishi kerak
Umumiy talablar	G'oyaviylik va tizimlilik	Tadbirning umumiy mazmuni	Ma'naviy-axloqiy tarbiya, tarixiy va zamonaviy uyg'unlik ta'minlanadi
	Interaktivlik	Ishtirokchilar bilan ishlash	Faollikni oshiruvchi savol-javob, muloqot usullari qo'llanadi
	Moslashuvchanlik	Tadbirni tashkil etish	Turli muassasa va auditoriyaga moslashtirish imkoniyati saqlanadi

21-MART – NAVRO‘Z BAYRAMI

“Navro‘z o‘zining o‘lmas ruhi, umuminsoniy g‘oyalari bilan bashariyat hayotidan tobora chuqur o‘rin egallamoqda.”

Shavkat Mirziyoyev



Navro‘z xalqimizning eng qadimiy va hayotbaxsh bayramlaridan biri sifatida asrlar davomida insonni tabiat, jamiyat va tarix bilan bog‘lab kelayotgan muhim ma‘naviy hodisadir. Uning asosida fasllar almashinuvi bilan bir qatorda yasharish, ruhiy poklanish, ezgulikka intilish, mehr-oqibat va mehnatsevarlik kabi yuksak qadriyatlar mujassam. Bahorning kirib kelishi, kun va tunning tenglashuvi orqali u nafaqat tabiiy jarayonni, balki inson tafakkuridagi yangilanish va ichki uyg‘unlikni ham

ifodalaydi.

Shu jihatdan Navro‘z insonni tabiat qonunlariga mos yashashga, hayotga yangicha nigoh bilan qarashga undovchi chuqur ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu bayram jamiyatda hamjihatlik, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat muhitini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Umumiy mehnat, xayriya, o‘zaro yordam va obodonlashtirish ishlari orqali u insonlarni bir maqsad atrofida birlashtirib, milliy qadriyatlarning uzluksizligini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, u shaxsning ichki kamolotini rivojlantirish, ijtimoiy faollikni oshirish va jamiyatda ijobiy muhitni mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali tarbiyaviy vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bayramning maqsadi – Navro‘z orqali insonlarda tabiatga ehtirom, milliy qadriyatlarga hurmat va o‘zaro mehr-oqibat munosabatlarini mustahkamlash maqsadi ko‘zlanadi. U insonni ichki yangilanishga chorlab, o‘z hayotiga mas‘uliyat bilan qarashga undaydi. Shu jarayonda yoshlar ongida tarixiy merosga sadoqat, jamiyatga daxldorlik hissi va ijtimoiy faollik shakllanib, ular ezgulik, hamjihatlik va bunyodkorlik ruhida kamol topadi. Navro‘z shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligini qo‘llab-quvvatlaydigan muhim ma‘naviy-tarbiyaviy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Bayram vazifasi – Navro‘zni tashkil etishda jamiyatda o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini kuchaytirish, milliy an‘analarni asrab-avaylash hamda ularni yosh avlod ongiga singdirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Aholini madaniy-ma‘rifiy tadbirlarga keng jalb etish, jamoaviylikni rivojlantirish, obodonlashtirish va xayriya ishlari orqali ijtimoiy faollikni oshirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Yoshlar o‘rtasida tashabbuskorlik, mehnatsevarlik va mas‘uliyat tuyg‘ularini shakllantirish, ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash orqali bayramning tarbiyaviy ta‘siri yanada chuqurlashadi.

KELIB CHIQISHI VA SHAKLLANISH TARIXI

Navro‘zning tarixiy ildizlari nihoyatda qadimiy bo‘lib, u insoniyatning tabiat bilan uyg‘un yashashga asoslangan dunyoqarashi negizida shakllangan. Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Firdavsiy, Umar Hayyom va Narshaxiy asarlarida uchraydigan ma‘lumotlar bu bayramning uch ming yildan ortiq tarixga ega ekanini ko‘rsatadi. Ushbu manbalarda Navro‘z inson hayoti va mehnatidan ajralmagan, tabiat qonunlari bilan uyg‘un shakllangan hodisa sifatida talqin etiladi. Xususan, quyoshning Hamal burjiga kirishi, kun va tunning tenglashuvi hamda kunduzning uzaya boshlashi kabi jarayonlar uning aniq astronomik va hayotiy asosga ega ekanini anglatadi.



Qadimiy dunyoqarashda bahor yorug‘likning zulmat ustidan ustun kelishi, hayotning yangilanishi va insonning o‘zini hamda atrof-muhitni poklash davri sifatida qabul qilingan. Bu tasavvurlar “Avesto”da ham aks etib, unda tabiatning jonlanishi ezgulik va tartib bilan bog‘lab talqin qilinadi. Shu bois Navro‘z boshidanoq faqat marosimiy hodisa emas, balki insonning ichki olamiga ta‘sir etuvchi, uni ezgulikka yo‘naltiruvchi ma‘naviy tamoyil sifatida shakllangan.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida Navro‘z turli davrlarda turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘lgan. Temuriylar davrida u jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida alohida ahamiyat kasb etib, obodonlashtirish ishlari, ariq-zovurlarni tozalash, umumiy mehnatga safarbarlik va muhtojlarga yordam ko‘rsatish kabi amaliy faoliyatlar bilan uyg‘unlashgan. Hirot muhitiga oid manbalarda bu jarayonlar ayniqsa yaqqol tasvirlangan bo‘lib, bayram ruhidagi yangilanish g‘oyasi bevosita hayot tarziga singganini ko‘rsatadi. Navro‘z tabiat qonuniyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yil davomida kun va tun nisbatining o‘zgarishidagi muhim nuqtalardan birini ifodalaydi. 21-martda kun va tun tenglashib, har biri 12 soatdan iborat bo‘ladi va bu bahoriy tengkunlik sifatida qaraladi. Shu davrdan boshlab kunduz uzayib, tun qisqara boshlaydi va bu jarayon yozning eng uzun kuni – 21-iyungacha davom etadi.

Keyinchalik 21-sentabrda kuzgi tengkunlik yuzaga kelib, undan so'ng tunning ulushi ortib boradi hamda 21-dekabrda yilning eng uzun kechasi kuzatiladi. Ana shu tabiiy aylanishlar qadimdan inson tomonidan kuzatilib, Navro'z yangi davrning boshlanishi, tabiat uyg'onishi va hayotning yangilanishi sifatida talqin etilgan.

DUNYO DAVLATLARIDA NISHONLANISH XUSUSIYATLARI



Navro'z dunyoning ko'plab mamlakatlarida nishonlanib, u turli hududlarda o'ziga xos an'analar bilan boyigan. Markaziy Osiyo davlatlari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda bayram umumxalq sayillari, milliy o'yinlar, sport musobaqalari va madaniy tadbirlar bilan keng nishonlanadi. Bu yerda jamoaviylik, hamjihatlik va umumiy bayramona muhit ustuvor ahamiyat kasb etadi. Eron, Turkiya va Ozarbayjon davlatlarida esa Navro'z oilaviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uylarni tozalash, dasturxon yozish, yaqinlar bilan uchrashish kabi marosimlar asosiy o'rin tutadi. Turkiyada esa u ko'proq madaniy tadbirlar, sayillar va xalq an'analari orqali nishonlanadi.

Janubiy Osiyo mamlakatlaridan Afg'oniston va Pokistonda Navro'z bayrami rang-barang sayillar, ot o'yinlari va an'anaviy tadbirlar bilan o'tadi. Hindistonning ayrim hududlarida ham bahor bayrami sifatida nishonlanib, u yerda madaniy va diniy marosimlar bilan uyg'unlashgan holda bo'lib o'tadi. Shuningdek, Yaqin Sharq va Kavkaz mintaqasida – Iroq, Suriya va Albaniya mamlakatlarida Navro'z ayyomi milliy o'zlikni ifodalovchi muhim sana sifatida qadrlanib, xalq sayillari va marosimlar bilan o'tkaziladi. Ayrim hududlarda olov ustidan sakrash, suv bilan bog'liq urf-odatlar hamon saqlanib qolgan.

Shu bilan birga, Navro'zning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi uning umuminsoniy ahamiyatini yanada mustahkamladi. Xususan, 2009-yilda u **YUNESKO** tomonidan nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritilib, 2010-yilda **BMT** tomonidan **21-mart – Xalqaro Navro'z kuni** deb e'lon qilindi. Bu esa bayramning xalqlarni birlashtiruvchi, madaniyatlararo muloqotni kuchaytiruvchi muhim qadriyat ekanini ko'rsatadi.



O'ZBEKISTONDA NISHONLANISHI

O'zbekistonda Navro'z umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanib, jamiyat hayotidagi muhim ma'naviy va ijtimoiy jarayonlarni birlashtiruvchi omilga aylangan. Mustaqillik yillarida u umum-milliy bayram sifatida e'tirof etilib, 21-mart dam olish kuni deb belgilandi va uni mamlakat bo'ylab keng nishonlash barqaror an'anaga aylandi. Bayram kunlari markaziy maydonlar, istirohat bog'lari va madaniy maskanlarda xalq sayillari, konsert dasturlari va festivallar o'tkazilib, "Navro'z sayli" doirasidagi loyihalar orqali milliy meros, san'at va zamonaviy madaniyat uyg'un tarzda namoyon etiladi.



Mahallalarda bayramga tayyorgarlik obodonlashtirish ishlari, umumxalq hasharlari va xayriya tadbirlari bilan boshlanib, ko'cha-ko'ylar, hovli-joylar va qabristonlar tartibga keltiriladi. Sumalak sayli, milliy o'yinlar va bahoriy sayillar orqali hamjihatlik muhiti kuchayadi. Lola sayli va guli surx sayli kabi an'analar hududiy madaniyatni boyitib, bayram mazmuniga o'ziga xos ruh bag'ishlaydi.

Bayram kunlari odamlar bir-birini ziyorat qiladi, keksalar holidan xabar oladi, muhtojlarga yordam ko'rsatadi va umumiy dasturxon atrofida jam bo'ladi. Shu jihatdan Navro'z insonlarni birlashtiruvchi, mehr-oqibatni mustahkamlovchi va jamiyatda ma'naviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhim ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

BAYRAMNING G'OYAVIY AHAMIYATI

Navro'z bayrami – inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ifodalovchi, yangilanish va ruhiy poklanish g'oyasini targ'ib etuvchi muhim ma'naviy-g'oyaviy hodisadir. U asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni saqlash hamda avlodlardan avlodga yetkazish orqali milliy o'zlikni mustahkamlaydi, jamiyatda mehr-oqibat, birdamlik va bag'rikenglik muhitini qaror toptiradi. Shu bilan birga, Navro'z insonni mehnatsevarlikka, yaratuvchanlikka va kelajakka ishonch bilan qarashga undaydi, uning mazmunida umuminsoniy qadriyatlar bo'lgan tinchlik, hamjihatlik va ezgulik g'oyalari mujassam.

9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI



Insoniyat tarixida ayrim sanalar bor-ki, ular vaqt o'tishi bilan qadri yanada chuqurlashib boradi. **9-may – Xotira va qadrlash kuni** ana shunday ma'naviy ahamiyatga ega sana bo'lib, u Vatan ozodligi va tinchligi yo'lida jon fido qilgan ajdodlar xotirasini e'zozlash, ularning jasorati va fidoyiligini qadrlash g'oyalarini o'zida mujassam etadi. Bu kun shunchaki bayram emas, balki o'tganlarni eslash, ularning hayot yo'li va xizmatini anglash orqali tarixiy xotirani tiklashga xizmat qiluvchi chuqur ma'naviy hodisadir.

Mazmun jihatidan ushbu sana insonni o'z tarixiga, ajdodlari qoldirgan merosga va bugungi tinch hayotning qadriga boshqacha nigoh bilan qarashga undaydi. Unda matonat, jasorat, vijdon va insoniylik kabi fazilatlar ulug'lanib, jamiyatda millatparvarlik, hamjihatlik va ma'naviy birlik tuyg'ulari mustahkamlanadi. Shu jihatdan Xotira va qadrlash kuni nafaqat tarixni yod etish, balki kelajak avlod ongida ma'naviy mas'uliyat va tarixiy ongni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Bayramning maqsadi – 9-may – Xotira va qadrlash kunining asosiy maqsadi ajdodlar xotirasini e'zozlash, ularning jasorati va fidoyiligini yoshlar ongiga singdirish, tinchlikning qadriga yetish tuyg'usini shakllantirish hamda jamiyatda tarixiy xotira, millatparvarlik va ma'naviy birlikni mustahkamlashdan iborat.

Bayramning vazifasi – yoshlarda tarixiy ongni rivojlantirish, yoshlarda vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytirish, tinch va osoyishta hayotning qadriini anglatish, faxriylar va keksalarga hurmat-e'tiborni mustahkamlash, xotira maskanlarini obod qilish hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali jamiyatda hamjihatlik va mehr-oqibat muhitini rivojlantirish asosiy vazifalar hisoblanadi.

KELIB CHIQISHI VA SHAKLLANISH TARIXI



Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng og‘ir va talafotli davrlardan biri bo‘lib, 1939-yilda boshlanib, 1945-yil 9-mayda fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba bilan yakunlandi. Urushda dunyoning 60 dan ortiq davlati ishtirok etib, jami 70 milliondan ortiq inson halok bo‘lgan. Aynan shu sana jahon miqyosida tinchlik, ozodlik va insoniyatning yovuzlik ustidan g‘alabasi ramzi sifatida

e’tirof etilib, urush qurbonlari xotirasini yod etish kuni sifatida qaror topdi. O‘zbekiston hududidan ham 1,5 milliondan ortiq inson frontga safarbar etilgan bo‘lib, ularning qariyb 500 mingdan ortiq odam halok bo‘lgan. Bu raqamlar urushning xalqimiz hayotiga qanchalik og‘ir ta’sir ko‘rsatganini yaqqol namoyon etadi.



Mustaqillik yillarida tarixiy xotirani asrash va ajdodlar jasoratini e’zozlash maqsadida 1999-yil 2-martdagi Prezident Farmoniga muvofiq **9-may “Xotira va qadrlash kuni”** deb e’lon qilindi. Ushbu qaror asosida Toshkent shahrida Xotira maydoni barpo etilib, hududlarda ham urush qurbonlari va faxriylar xotirasiga bag‘ishlangan yodgorliklar bunyod etildi. Keyinchalik **“Xotira xiyoboni”** hamda **“Shahidlar xotirasi”** yodgorlik majmualarining tashkil etilishi bu sananing milliy xotira va ma’naviy qadriyatlar timsoliga aylanganini ko‘rsatadi. Vaqt o‘tishi bilan bu sana nafaqat urush voqealarini eslash, balki tinchlikning qadriga yetish, jamiyatda hamjihatlik va insoniylik g‘oyalarini mustahkamlash bilan boyidi. Shu tariqa Xotira va qadrlash kuni tarixiy xotira, ma’naviy qadriyatlar va avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi muhim ijtimoiy hodisa sifatida shakllandi.

DUNYO DAVLATLARIDA NISHONLANISHI



talqin etiladi. Shu bois 9-may nafaqat tarixiy sana, balki xalqlarning o‘tmishga munosabatini namoyon etuvchi muhim ijtimoiy hodisa hamdir.

Rossiya, Belarus va Qozog‘iston kabi davlatlarda bu sana **“G‘alaba kuni”** sifatida keng miqyosda nishonlanib, harbiy paradlar, xotira marosimlari, faxriylarni e‘zozlash tadbirlari hamda **“O‘lmas polk”** kabi ommaviy yurishlar tashkil etiladi. Germaniya, Polsha va Fransiya kabi Yevropa davlatlarida esa asosiy e‘tibor tantanaga emas, balki urush oqibatlarini anglash, qurbonlar xotirasini yod etish va tarixdan saboq chiqarishga qaratiladi.



AQSh va Buyuk Britaniyada Ikkinchi jahon urushi bilan bog‘liq xotira marosimlari boshqa sanalarda o‘tkazilsa-da, ularning mazmunida halok bo‘lganlarni yod etish, faxriylarni qadrlash va yosh avlodni tinchlik ruhida tarbiyalash g‘oyalari ustuvor o‘rin tutadi. Demak, turli mamlakatlarda nishonlanish shakli farq qilsa-da, ularni birlashtirib turuvchi asosiy mazmun urush qurbonlari xotirasiga hurmat, tinchlikni ulug‘lash va insoniyatni bunday fojialardan asrash g‘oyasidir.

O‘ZBEKISTONDA NISHONLANISHI

O‘zbekistonda 9-may – Xotira va qadrlash kuni umumxalq miqyosida chuqur hurmat va ehtirom ruhida nishonlanadi. Bayram kunlari xotira maydonlari, yodgorlik majmualari va qabristonlarga tashrif buyurilib, urush qurbonlari hamda Vatan himoyasi yo‘lida halok bo‘lganlar xotirasi yod etiladi. Bu sana xalqimiz boshidan kechirgan sinovlarni eslash, tinchlikning qadriga yetish va ajdodlar jasoratini e‘zozlash bilan bog‘liq ma’naviy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.





yo'lida jon fido qilgan. Ushbu raqamlar bayramning mazmunini yanada chuqurlashtirib, unda xalqimizning jasorati, matonati va fidoyiligi mujassam ekanini ko'rsatadi.

Bayram doirasida davlat va jamoatchilik tomonidan turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, xotira kechalari hamda faxriylar bilan muloqotlar tashkil etiladi. Mahallalarda umumxalq hasharlari o'tkazilib, qabristonlar va xotira maskanlari obod qilinadi. Bayram kunlari yoshlar tarixiy xotira, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalanib, ajdodlar jasoratidan ibrat olishga undaladi.

BAYRAMNING G'OYAVIY AHAMIYATI

9-may – Xotira va qadrlash kuni jamiyat ongida tarixiy xotira, ma'naviy mas'uliyat va tinchlikning qadriga yetish g'oyalarini mustahkamlovchi muhim sana hisoblanadi. Bu kun orqali urushning og'ir oqibatlari, ajdodlar jasorati va insoniyat boshidan kechirgan fojialar yodga olinib, insonni o'z tarixiga befarq bo'lmaslikka, o'tganlar xotirasini e'zozlashga va bugungi osoyishta hayotning qadriini anglashga undaydi. Shu jihatdan ushbu sana millatparvarlik, hamjihatlik va insoniylik qadriyatlarini kuchaytirib, jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash, avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash va kelajakni mas'uliyat bilan qurishga chorlovchi kuchli g'oyaviy omil sifatida namoyon bo'ladi.



YODDA TUTING !!!

“Tinchlik” bu eng oliy ne'mat, u ajdodlar jasorati evaziga qo'lga kiritilgan va uni asrash har birimizning vatan oldidagi burchimizdir.

9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI BAYRAM SSENARIYSI VA TASHKILIY-METODIK TAVSIYALAR

Bayram ssenariysi namunaviy loyihasi

Loyiha maqsadi: Ajdodlar xotirasini e'zozlash, yoshlarda tarixiy ong, vatanparvarlik va tinchlikning qadriga yetish tuyg'ularini shakllantirishdan iborat.

Loyiha vazifalari:

-  urush qatnashchilari va qurbonlari xotirasini yod etish;
-  yosh avlodda ma'naviy mas'uliyat va ijtimoiy faollikni rivojlantirish;
-  faxriylar va keksalarga hurmat-e'tiborni kuchaytirish;
-  tinchlik va hamjihatlik g'oyalarini targ'ib etishga qaratilgan.

Tadbir shakli: Ma'naviy-ma'rifiy tadbir, uchrashuv, sahna ko'rinishlari va badiiy chiqishlar uyg'unligida tashkil etiladi.

O'tkazish joyi: *Ta'lim muassasalari, mahalla markazlari, madaniyat maskanlari yoki xotira maydonlari.*

Tadbir ishtirokchilari: *Yoshlar, o'quvchilar, talabalar, mahalla faollari, faxriylar va keng jamoatchilik vakillari.*

SSENARIY MAZMUNI

Kirish qismi

Tadbir davlat madhiyasi bilan ochiladi. Boshlovchilar yig'ilganlarni Xotira va qadrlash kuni bilan qutlab, bayramning mazmun-mohiyatini ochib beradi. Kirish nutqida Ikkinchi jahon urushining og'ir oqibatlari, ajdodlar jasorati va bugungi tinch hayotning qadri qisqa va ta'sirli tarzda yoritiladi.

Asosiy qism

1. "Tirik tarix" interaktiv bloki. Urush qatnashchilari, mehnat fronti faxriylari yoki ularning avlodlari ishtirokida uchrashuv tashkil etiladi. Ishtirokchilar o'z xotiralari bilan o'rtoqlashadi, yoshlar bilan savol-javoblar o'tkazilib, jonli muloqot muhiti yaratiladi.

2. Sahna ko'rinishlari. Ikkinchi jahon urushi davriga oid qisqa sahna chiqishlari namoyish etiladi. Unda askar jasorati, onalarning sabr-toqati va xalqning matonati badiiy vositalar orqali yoritiladi.

3. Badiiy chiqishlar. She'rlar, qo'shiqlar va musiqiy kompozitsiyalar ijro etilib, tinchlik, vatanparvarlik va ajdodlar xotirasiga hurmat g'oyalari ifodalanadi.

4. "Minnatdorlik va ehtirom" aksiyasi. Faxriylar va keksalarga hurmat ko'rsatilib, ularga gullar topshiriladi hamda "rahmat maktublari" o'qib eshittiriladi.

Yakuniy qism

Tadbir yakunida urush qurbonlari xotirasiga hurmat bajo keltirib, sukut saqlanadi. Yakuniy so'zda tinchlikning qadri va uni asrash burchi alohida ta'kidlanadi.

Tashkiliy-metodik tavsiyalar

Ushbu namunaviy tadbirlar loyihasi ta'lim muassasalari, mahallalar, davlat va nodavlat tashkilotlarida bir xil tamoyillar asosida qo'llanishi tavsiya etiladi. Tadbirlar joy sharoiti va ishtirokchilar tarkibidan kelib chiqib moslashtiriladi, biroq uning asosiy mazmuni – xotira, hurmat va tinchlik g'oyalari saqlanib qolishi lozim.

Mahallalarda tadbirlar jamoaviylik ruhida tashkil etilib, umumxalq hasharlari, qabristonlarni obod qilish, urush faxriylaridan xabar olish va ularni ziyorat qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, xotira bog'lari va yodgorlik majmualarida o'tkaziladigan tadbirlar tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalari hamda shahar va tuman markazlarida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, sahna ko'rinishlari, ma'ruzalar va interaktiv loyihalar tashkil etilib, yoshlar orasida tarixiy ongni shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanadi.

Tadbirlarni ortiqcha rasmiyatchiliksiz, jonli va ishtirokchilarni faol jalb etuvchi shaklda o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lib, har bir hudud o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib ssenariyni boyitishi va amaliy mazmun bilan to'ldirishi mumkin.

1-SENTABR – MUSTAQILLIK KUNI

“Mustaqillik – bu, eng avvalo, o‘z taqdiriga ega bo‘lish, o‘z yo‘lini tanlash, erkin va ozod yashash huquqidir. Mustaqillik – bu el-yurtning iffati, sha’ni va g‘ururidir. Shu bois, bu ne‘matning qadriga yetish, uni ko‘z qorachig‘idek asrash barchamiz uchun muqaddas burchdir.”

Shavkat Mirziyoyev



Millatning erki, o‘zligi, qadri va istiqbolini belgilovchi ulug‘ ne‘mat bu mustaqillikdir. 1991-yil 31-avgustda xalqimizning qat’iy xohish-irodasi bilan qo‘lga kiritilgan milliy istiqbol tarixiy adolatni tiklab, xalq taqdirini o‘z qo‘liga qaytardi hamda milliy g‘urur va iftixorni yuksaltirdi. Bu sana nafaqat siyosiy mustaqillik, balki jamiyat hayotida tub burilish yasagan, yangi taraqqiyot bosqichiga yo‘l ochgan muhim tarixiy voqea sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mustaqillik g‘oyasi mafkuraviy barqarorlik, ma’naviy yetuklik va bag‘rikenglik tamoyillari asosida rivojlanib, milliy taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda. Istiqbol – bu shunchaki bayram emas, balki milliy uyg‘onish, ma’naviy ozodlik va inson qadri ustuvor bo‘lgan hayot falsafasidir.

KELIB CHIQISH TARIXI

Mustaqillik ne‘mati bu xalqning asrlar davomida orzu qilgan erkinligi, o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqining ro‘yobga chiqishidir. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi uzoq tarixiy jarayonlar, murakkab siyosiy izlanishlar va milliy o‘zlikni anglash bosqichlari natijasida shakllangan. XX asr oxirida sobiq ittifoq tizimining chuqur inqirozga yuz tutishi, markazlashgan boshqaruvning samarasizligi hamda xalqlarning erkinlikka intilishining kuchayishi mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlashni taqozo etdi. Ana shunday mas’uliyatli tarixiy pallada xalqimiz o‘z taqdirini o‘zi belgilashga qat’iy qaror qilganini amalda

namoyon etdi. **1991-yil 31-avgust kuni** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida **“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida”**gi tarixiy hujjat qabul qilinib, mamlakatimiz mustaqil davlat sifatida e‘lon qilindi.

Ushbu qaror nafaqat siyosiy tizimda tub burilish yasadi, balki milliy davlatchilikni tiklash, milliy qadriyatlarni rivojlantirish va mustaqil taraqqiyot strategiyasini belgilash uchun mustahkam asos yaratdi. Shu asosda **1-sentabr – Mustaqillik kuni** sifatida belgilandi va u xalqimizning erkinlikka erishganini ifodalovchi umumxalq bayramiga aylandi. Mustaqillik e‘lon qilinishi bilan mamlakat hayotining barcha sohalarida – siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy tizimlarda chuqur o‘zgarishlar boshlandi. Milliy davlatchilik asoslari mustahkamlanib, xalq manfaati ustuvor bo‘lgan yangi taraqqiyot modeli shakllandi.

Shu jihatdan Mustaqillik kuni nafaqat tarixiy sana, balki xalqimizning erkinlik, o‘zlikni anglash va barqaror taraqqiyot sari intilishining mustahkam poydevori sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘ZBEKISTONDA NISHONLANISHI

Ozodlikning ilk nafasi, erkinlikning eng ulug‘ tantanasi bo‘lgan 1-sentabr – Mustaqillik kuni biz uchun oddiy sana emas, balki xalqimizning eng buyuk yutug‘i, tarixiy burilish nuqtasidir. Bu kun qalbimizni junbushga keltiradi, chunki aynan shu sana orqali biz ozodlik nima ekanini, erkin yashash naqadar ulug‘ ne‘mat ekanini chuqur his qilamiz. Mustaqillik bizga o‘z taqdirimizni o‘zimiz belgilash, milliy qadriyatlarimizni tiklash hamda kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan barpo etish imkonini berdi. Shu bois bu bayram har bir yurtdoshimiz qalbida faxr, g‘urur va cheksiz shukronalik tuyg‘ularini uyg‘otadi.



O‘zbekistonda Mustaqillik bayrami har yili yuksak saviyada tashkil etiladi va uni keng nishonlash bo‘yicha davlat darajasida alohida qaror va farmonlar qabul qilinadi. Mazkur hujjatlar asosida bayram tadbirlarining aniq dasturi ishlab chiqilib, barcha hududlarda bayram tadbirlarini yuqori saviyada

o‘tkazish ta‘minlanadi.

Mustaqillik bayrami yurtimizda har yili katta shodiyona bilan nishonlanadi. Bayram arafasidanoq ko‘chalar va maydonlar davlat bayroqlari bilan bezatilib, yurtda o‘zgacha ruh va ko‘tarinkilik hukm suradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, barcha viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman va qishloqlarning markaziy maydonlarida ulkan sahnalar barpo etilib, konsert dasturlari, teatrlashtirilgan chiqishlar, milliy raqs va qo‘shiqlar namoyish etiladi.



Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston milliy bog‘ida davlat rahbari ishtirokida o‘tkaziladigan markaziy bayram tadbiri turli millat va elat vakillari, san‘atkorlar hamda ziyolilar ishtirokida yuksak darajada tashkil etiladi. Kechga yaqin mushakbozliklar ozod yurt osmonini yoritib, bayramga alohida fayz bag‘ishlaydi. Eng muhimi, bu kun butun xalqni yagona tuyg‘u – milliy g‘urur va faxr atrofida birlashtiradi. Shu bilan birga, Mustaqillik bayrami arafasida yurtimiz ravnaqi yo‘lida fidokorona mehnat qilgan, turli sohalarda yuksak natijalarga erishgan insonlar davlat mukofotlari bilan taqdirlanadi. Prezident farmonlari asosida ularga orden va medallar, faxriy unvonlar topshirilib, ularning jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi yuksak e‘tirof etiladi. Bu jarayon nafaqat mehnatni qadrlash, balki yosh avlod uchun ibrat yaratish, fidoyilik, vatanparvarlik va mas‘uliyat kabi fazilatlarni targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Bayram faqatgina tantana va konsertlar bilan cheklanmaydi. U maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridan boshlab oliy ta‘lim muassasalarigacha uzluksiz davom etadigan ma‘naviy-ma‘rifiy jarayon sifatida tashkil etiladi. “Mustaqillik darslari” orqali yosh avlodga tariximiz, ajdodlarimizning fidokorligi va bugungi erkin hayotning qadr-qimmati chuqur anglatiladi. Bu jarayon yoshlar qalbida milliy g‘urur va iftixorni shakllantirishga xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalari orqali turli ko‘rsatuvlar, hujjatli filmlar va suhbatlar orqali mustaqillikning mazmun-mohiyati keng yoritiladi. Harbiy sohada ham maxsus tadbirlar o‘tkazilib, Vatan himoyasi, sadoqat va jasorat tushunchalari yoshlar ongiga singdiriladi.

Mustaqillik bayrami nafaqat yurtimizda, balki xorijda yashayotgan vatandoshlarimiz tomonidan ham keng nishonlanadi. Ular turli tadbirlar va konsertlar orqali Vatanga bo‘lgan mehrini namoyon etadi. Bu esa mustaqillik faqat hudud bilan bog‘liq tushuncha emas, balki qalbdagi yashaydigan milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

MUSTAQILLIK G‘OYASINING MAZMUN-MOHIYATINI OCHIB BERUVCHI ASOSIY TUSHUNCHALAR

MUSTAQILLIK NIMA?

Mustaqillik – bu millatning erkin nafas olishi, xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, o‘z kelajagini o‘zi qurishga haqli ekanini anglatadi. Bu shunchaki siyosiy voqea emas balki, har bir fuqaroning qalbidagi iftixor, Vatanga bo‘lgan muhabbat, fidokorlik tuyg‘usidir.



O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIKKA QACHON ERISHDI?

1991-yil 31-avgust – xalqimiz uchun ta’rixdagi eng ulug‘ kunlardan biri bo‘ldi. O‘sha kuni millatimiz necha yillik orzuqib kutgan orzusiga – **milliy ozodlik va davlat mustaqilligiga** erishdi. Bu erkinlik – qon bilan, jasorat bilan, iroda va sabr bilan qo‘lga kiritilgan buyuk g‘alabadir.

VATAN NIMA ?

Vatan – bu insonning shaxsiy va jamoaviy ongida yashovchi, tarix, madaniyat, til, urf-odat va ma’naviy qadriyatlar bilan to‘qilgan muqaddas makondir. U faqat jisman bir yer emas, balki ruhan bog‘liqlik, burch va muhabbat asosida seviladigan ona yurtidir. Unda tuproq, quyosh, non va obihayotning shirin hidi bor. Unda ovoz bor – bolalar kulgisi, masjiddan eshitilgan azon, ota-onang so‘zlari. Va albatta, unda sevgi bor so‘zsiz, tuyg‘usiz, shartsiz va hech qanday talabsiz.



Vatan – bu shunchaki yer maydoni emas. Bu sen tug‘ilgan uy, birinchi yugurgan qadaming, bolalik xotiralaring va har gal qaytganingda seni kutadigan, xato qilganingda ham kechiradigan joydir. Unda onangning ko‘z yoshlari, otangning bevosita aytmagan, lekin so‘zsiz o‘rgatgan darslari yashaydi.

Vatan – bu sening ruhing orom topadigan, seni o‘zidan uzoqlashtirmaydigan yagona joydir. Sening mavjudligingda yoki mavjud emasligingda ham sen uchun duo qiladigan ona zamindir.

MILLAT NIMA?



Millat deganda umumiy til, madaniyat, tarix, urf-odat va ma'naviy qadriyatlar asosida shakllangan, muayyan hududda yashovchi va umumiy manfaatlarga ega bo'lgan xalq birligidir.

“Millat” ma'lum hududda barqaror yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib, kishilarning ma'naviy-ruhiy salohiyat yagonaligi asosida shakllanadi.

XALQ NIMA?

Xalq bu muayyan hududda yashovchi, umumiy tarixi, madaniyati va ijtimoiy taraqqiyotga ega bo'lgan insonlar jamiyati. U millat, elat, urug' va etnik guruhlarini o'z ichiga oladi.

O'ZBEKISTON XALQI

“O'zbekiston xalqi” deganda yurtimizda doimiy yashovchi, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, barcha fuqarolarning yagona va jips birligi. Bu birlik davlatimizning asosiy kuch-quvvatidir.

YANGI O'ZBEKISTON – MUSTAQILLIK NE'MATINING MAHLUSI

Bugungi “Yangi O'zbekiston” mustaqillik ne'matining bevosita natijasi bo'lib, unda inson qadri, erkinlik, adolat va taraqqiyot davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylangan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida mustahkamlab qo'yilgani mustaqillik g'oyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bu esa jamiyat taraqqiyotida inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning erkin va munosib hayot kechirishini kafolatlashga xizmat qiladi.

**1-sentabr – Mustaqillik kuni bayrami munosabati bilan amaliy
targ‘ibot tadbirlar namunaviy rejasi**

T/r	Yo‘nalish	Tadbir shakli	Mazmuni
1	Istiqlol g‘oyasini singdirish	Ochiq dars, ma’ruza	“Mustaqillik – milliy o‘zlikni anglash asosi”
2	Yoshlar bilan ishlash	Yoshlar forumi, debat	“Men nechun sevaman O‘zbekistonimni?”
3	Media-g‘oyaviy mafkuraviy faoliyat	Videorolik, ijtimoiy tarmoq aksiyasi	“Istiqlol eng aziz ne‘mat” xeshtegi
4	Ma’naviy-ma’rifiy kechalar tashkil etish	Adabiy kecha, she’rxonlik	A.Oripov, E.Vohidov, M.Yusuf kabi ijodi orqali istiqlool tuyg‘usi
5	Milliy tarixiy o‘rganish	“Tarix va istiqlool” uyg‘unligini aks ettiruvchi kontentlar jamlanmasi	Mustaqillikka olib kelgan tarixiy jarayonlar namoyon etiladi.
6	Maktabgacha va Oliy ta’lim muassasalarida tag‘ibotlar	Tarbiyaviy soat, faol ota-onalar yig‘ilishi	“Istiqlol – avlodlar orasidagi ma’naviy bog‘”
7	Mustaqillik mavzularida ijodiy tanlovlar tashkil etish	Bayon, insho, rasm, videorolik tanlovlarini o‘tkazish	“Hech kimga bermaymiz seni – O‘zbekiston”
8	Diniy-axloqiy qadriyatlar uyg‘unligida diniy muassasalarda ma’ruzalar tashkil etish	“Vatanga muhabbat – iymondandir” ma’ruzalar	Milliy va diniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali tinchlik va farovonlik muqaddas ekanligini tushuntirish
9	Xalq bilan muloqot	Mahalla va jamoatchilik madaniy-ma’rifiy soha vakillari ishtirokida uchrashuvlar tashkil etish	“Millatning g‘ururi – uning erkinligidir”
10	Harbiy va Mudofaa soha vakillari o‘rtasida turli ma’naviy-ma’rifiy kechalar, tadbirlar, musobaqalar va bellashuvlar tashkil etish	“Ma’naviy- ma’rifiy dars soatlari”	“Vatan ostanadan boshlanadi” g‘oyasi ostida soha vakillarida vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish

1-OKTABR – O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI



Jamiyat taraqqiyotining poydevori aynan ustoz va murabbiylar mehnati bilan barpo etiladi. **1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni** ana shu fidokor insonlarga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, ularning jamiyat hayotidagi beqiyos o‘rnini anglashga bag‘ishlangan muhim sana hisoblanadi. Bu kun orqali o‘qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy kamolotga yetaklovchi, yosh avlodni tarbiyalovchi va kelajakni

shakllantiruvchi kuch ekani yanada chuqur his etiladi.

Mazmunan ushbu sana ustoz–shogird an‘analarini mustahkamlash, jamiyatda ilm-ma’rifatga bo‘lgan munosabatni yuksaltirish hamda o‘qituvchining ijtimoiy nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan bu kun nafaqat bayram, balki yosh avlodda ustozga hurmat, ilmga intilish va ma’naviy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Bayramning maqsadi

O‘qituvchi va murabbiylar kunini nishonlashdan maqsad ustozlar mehnatini e’tirof etish, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini yuksaltirish hamda yosh avlod ongida ustozga hurmat, ilmga intilish va ma’naviy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirishdan iborat.

Bayramning vazifasi

Bayram doirasida o‘qituvchilarga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, ularning fidokorona mehnatini targ‘ib etish, ustoz–shogird an‘analarini mustahkamlash, yoshlarni bilimli, vatanparvar va ma’naviy yetuk qilib tarbiyalashga yo‘naltirish hamda ta’lim muassasalarida ijobiy, ijodiy va hamjihatlik muhitini shakllantirish asosiy vazifalar hisoblanadi.

KELIB CHIQISH TARIXI

O‘qituvchi va murabbiylar kunining joriy etilishi jamiyatda ta’lim-tarbiya sohasiga bo‘lgan yuksak e’tibor va ustozlar mehnatini munosib qadrlash zaruratidan kelib chiqqan. Mustaqillik yillarida inson qadri, ilm-ma’rifat va ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi bilan bir qatorda, o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etdi.



Shu asosda, **1997-yil 27-dekabrda** O‘zbekiston Respublikasining tegishli qarori bilan **1-oktabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”** sifatida belgilandi va umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadigan sana sifatida amaliyotga joriy etildi.

Ushbu sana joriy etilishi bilan ustozlar mehnatini e’tirof etish, ularni rag‘batlantirish hamda yosh avlodni ustozlarga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Bugungi kunda ushbu bayram ta’lim muassasalari, mahallalar va keng jamoatchilik ishtirokida nishonlanib, ustoz–shogird an’analarini mustahkamlash, ilm-ma’rifatga bo‘lgan munosabatni yuksaltirish hamda jamiyatda ma’naviy muhitni boyitishga xizmat qilmoqda.

DUNYO DAVLATLARIDA NISHONLANISHI

Insoniyat taraqqiyoti tarixida ustoz siymosi har doim alohida maqomga ega bo‘lib kelgan. Jamiyatning intellektual salohiyati, ma’naviy darajasi va kelajak istiqboli bevosita ta’lim tizimi bilan, ta’lim esa o‘z navbatida o‘qituvchi shaxsi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois dunyoning turli mamlakatlarida o‘qituvchi va murabbiylarga bo‘lgan hurmat nafaqat ma’naviy qadriyat, balki davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Turli tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlarga qaramay, ushbu bayramning mazmunida yagona g‘oya bu ustozni e’zozlash va uning jamiyatdagi o‘rnini yuksaltirishni o‘zida mujassam etadi.

Jumladan, 5-oktabr sanasi **UNESCO** tashabbusi bilan **Xalqaro o‘qituvchilar kuni** sifatida e’lon qilingan bo‘lib, u global miqyosda o‘qituvchilarning mehnatini e’tirof etish, ularning ijtimoiy maqomini mustahkamlash va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim platforma hisoblanadi. Ushbu sana **1966-yilda qabul qilingan “O‘qituvchilarning maqomi to‘g‘risida”**gi xalqaro tavsiyanomaga ham bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchilarning huquqlari, kasbiy erkinligi va ijtimoiy himoyasini ta’minlash masalalarini ilgari suradi. Shu bois bu kunda faqat bayramona tadbirlar emas, balki ilmiy anjumanlar, siyosiy muhokamalar va xalqaro hamkorlik tashabbuslari ham faol olib boriladi.

Sharq sivilizatsiyasida ustozga hurmat qadimdan chuqur ildiz otgan. Xitoyda 10-sentabr kuni nishonlanadigan o‘qituvchilar kuni ana shu qadriyatlarning yorqin ifodasidir. Bu mamlakatda o‘qituvchi shaxsi Konfutsiylik ta’limoti asosida **“axloqiy yetakchi”** sifatida talqin etiladi. Shu bois o‘quvchilarning ustozga ta’zim bajo keltirishi oddiy marosim emas, balki insoniy kamolotga hurmat ramzi sifatida qaraladi. Bu yerda bayramning mazmuni intizom, hurmat va ma’naviy yetuklik g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.



Hindistonda esa o'qituvchilar kuni mashhur faylasuf va davlat arbobi Sarvepalli Radhakrishnan nomi bilan bog'liq holda nishonlanadi. Uning fikricha, **“Eng yaxshi o'qituvchi bu bilim beruvchi emas, balki fikrlashga undovchi shaxsdir”**. Shu sababli, **5-sentabr kuni** o'quvchilarning o'qituvchi rolini bajarib ko'rishi bejiz emas. Bu yondashuv pedagogik jarayonni ichdan anglash, ustoz mehnatini his qilish va unga nisbatan ongli hurmatni shakllantirishga xizmat qiladi.



G'arb mamlakatlarida, xususan AQShda, o'qituvchini qadrlash amaliy shaklga ega. **“Teacher Appreciation Week”** doirasida o'qituvchilarga e'tibor qaratilishi ularning kundalik mehnatini ko'rish, qadrlash va rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Bu yondashuv jamiyatda o'qituvchiga nisbatan ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantiradi hamda ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunda nafaqat o'quvchilar, balki ota-onalar va jamoatchilik ham faol ishtirok etadi.

Janubiy Koreyada 15-may kuni nishonlanadigan o'qituvchilar kuni esa ramziy va hissiy jihatdan boy an'analarga ega. Qizil chinnigullar taqdim etish orqali ustozga hurmat bildiriladi. Bu gul Koreya madaniyatida minnatdorchilik va sadoqat timsoli hisoblanadi. Ba'zi hollarda o'quvchilarning ustozinikiga borib tabriklashi esa ustoz-shogird munosabatining nafaqat rasmiy, balki insoniy yaqinlik asosida qurilganini ko'rsatadi.

Ushbu xalqaro tajribalarni umumlashtirib aytganda, turli davlatlarda o'qituvchi va murabbiylar kunining nishonlanish shakllari xilma-xil bo'lsa-da,

ularning barchasida bir xil ma'naviy asos mujassam: ustozga hurmat, ilmga e'tibor va kelajak avlod tarbiyasiga mas'uliyat. Shunday ekan, bunday bayramlar o'quvchilarda ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish, minnatdorchilik tuyg'usini rivojlantirish, ustoz-shogird munosabatlarini mustahkamlash va ta'lim jarayoniga ijobiy motivatsiya berishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.



O'ZBEKISTONDA NISHONLANISHI

Har yili 1-oktabr kelishi bilan maktablarda o'zgacha bir muhit seziladi. Oddiy kunlardagidan farqli ravishda sinfxonalarda iliqlik, samimiyat va minnatdorchilik kayfiyati ustun bo'ladi. Buning sababi aniq. Bu sana o'qituvchi va murabbiylarga hurmat izhor etiladigan, ularning mehnati chin ma'noda qadrlanadigan kun sifatida shakllangan. Aslida esa bayram bir kun bilan cheklanmaydi. U jamiyatning ustozga bo'lgan munosabatini aks ettiradigan muhim belgidir. Ushbu kunda nafaqat tabriklar yangraydi, balki ustozlar mehnati amalda e'tirof etiladi. Fidoyi pedagoglar davlat tomonidan mukofotlanadi, faxriy unvonlarga sazovor bo'ladi, rag'batlantiriladi. Ustoz mehnatini qadrlash kelajakni qadrlash bilan tengdir.

Mamlakatimizda o'qituvchilarni rag'batlantirish tizimi izchil shakllangan. Ta'lim rivojiga hissa qo'shgan pedagoglar uchun turli faxriy unvonlar joriy etilgan. **“O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi”** unvoni eng yuksak e'tiroflardan biri hisoblanadi. U o'z kasbiga sadoqat bilan yondashgan, yosh avlod tarbiyasiga katta hissa qo'shgan ustozlarga beriladi. **“Xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi”**, **“Xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi”** kabi unvonlar ham pedagoglarning kasbiy faoliyatini yuqori baholaydi. Maktab va oliy ta'lim tizimida **“Xalq ta'limi a'lochisi”**, **“Oliy ta'lim a'lochisi”** nishonlari ham muhim rag'bat hisoblanadi.

Ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan ustozlar **“O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi”** unvoni bilan taqdirlanadi. Bu e'tirof ilmiy izlanishlari, darsliklari va tadqiqotlari bilan ta'lim rivojiga hissa qo'shgan pedagoglarga beriladi. Ilg'or va tashabbuskor o'qituvchilar orden va



medallar bilan ham mukofotlanadi. **“El-yurt hurmati”**, **“Fidokorona xizmatlari uchun”**, **“Mehnat shuhrati”** ordenlari hamda **“Shuhrat”** medali ustoz mehnatining yuksak e'tirofi hisoblanadi. Bunday mukofotlar kasbiy faoliyat bilan birga jamiyat taraqqiyotiga qo'shilgan hissani ham ifodalaydi.

So'nggi yillarda o'qituvchilarni moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash

masalasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ish haqi oshirilmoqda, ustamalar joriy etilmoqda, malaka toifasiga qarab rag'batlantirish tizimi takomillashmoqda. Uy-joy, sog'lomlashtirish va ijtimoiy himoya bilan bog'liq imkoniyatlar kengayib bormoqda. Natijada o'qituvchi va murabbiylarning jamiyatdagi mavqei yanada mustahkamlanmoqda. Bayram doirasida o'tkaziladigan tanlovlar ham alohida ahamiyatga ega. **“Yilning eng yaxshi o'qituvchisi”**, **“Eng faol pedagog”** kabi nominatsiyalar o'qituvchilarni izlanishga undaydi, ilg'or tajribalarni yoyishga xizmat qiladi.

Eng muhim jihat shundaki, berilayotgan e'tirof faqat bayram bilan tugamaydi. Ustoz nufuzi oshadi, yoshlar ongida pedagog kasbiga hurmat mustahkamlanadi. Samarasi o'laroq ta'lim muhitida ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Shunday ekan, O'qituvchi va murabbiylar kuni ustoz mehnatini qadrlash, jamiyatda ma'rifatga e'tiborni kuchaytirish va yosh avlod tarbiyasiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

BAYRAMNING G'OYAVIY AHAMIYATI

O'qituvchi va murabbiylar kuni jamiyat hayotida chuqur g'oyaviy ahamiyat kasb etib, ustoz shaxsini oddiy kasb egasi darajasidan yuksak ma'naviy taraqqiyotning bosh omili sifatida namoyon etadi. Ushbu bayram orqali yosh avlod ongida ilmga hurmat, ustozga sadoqat va tarbiyaga mas'uliyat tuyg'ulari shakllanib, ta'lim jarayoni shunchaki bilim berish emas, balki barkamol shaxsni voyaga yetkazish vositasiga aylanadi.

Bejizga Shavkat Mirziyoyev, “Yangi O'zbekistonni barpo etishda eng katta tayanchimiz bu bilimli, fidoyi ustozlardir”, deya ta'kidlamaydi. Zero, ustozga ehtirom jamiyatning o'z kelajagiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi hamda ma'rifatga tayangan taraqqiyot g'oyasini mustahkamlovchi muhim ma'naviy omil sifatida namoyon bo'ladi.

8-DEKABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI



Tarixda shunday kunlar bo‘ladiki, ular nafaqat vaqtini, balki jamiyat tafakkurini ham o‘zgartiradi. Ana shunday burilishlardan biri – **8-dekabr sanasidir**. Bu sana orqali davlat boshqaruvi tasodifiy qarorlar emas, balki aniq huquqiy mezonlar asosida yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat hayotining bosh yo‘riqnomasi sifatida nafaqat siyosiy tizimni belgilab berdi, balki jamiyatni adolat, tartib va barqarorlik asosida rivojlantirishning mustahkam poydevorini yaratdi. Shu bois, Konstitutsiya – bu shunchaki hujjat emas, balki davlatning ichki kuchi, xalqning irodasi va kelajakka bo‘lgan ishonchining mujassam ifodasidir.

Konstitutsiyaning eng ulug‘ g‘oyasi – inson qadri ustuvorligi tamoyilidir. Unda inson hayoti, erkinligi va sha‘ni eng oliy ne‘mat sifatida e‘tirof etiladi. Bu esa davlatni hokimiyat markazi emas, balki inson manfaatlariga xizmat qiluvchi tizim sifatida shakllantiradi. Konstitutsiya jamiyatdagi barcha jarayonlarni muvozanatga keltirib, tenglik, adolat va qonun ustuvorligini hayotiy mezonga aylantiradi. Natijada u fuqaroda nafaqat huquqiy ongni, balki mas‘uliyat, daxldorlik va faol fuqarolik pozitsiyasini ham shakllantiradi.

Konstitutsiya kunini nishonlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad – jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hurmatni shakllantirish orqali fuqarolarda qonunga itoat qilishni ichki ehtiyoj darajasiga olib chiqish muhim hisoblanadi. Bu jarayon odamlarning o‘z huquq va erkinliklarini anglab yetishiga, ularni himoya qilishga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bayram orqali davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch mustahkamlanadi, fuqarolik mas‘uliyati kuchayadi.

Konstitutsiya kunining asosiy vazifasi – uning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka sodda va tushunarli tarzda yetkazishdir. Bu doirada fuqarolarning huquqiy bilimini chuqurlashtirish, yosh avlodni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash va ularni faol fuqarolik pozitsiyasiga undash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta‘lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va jamoat tashkilotlari orqali huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish, Konstitutsiya normalarini hayotiy misollar bilan tushuntirish muhim vazifalardan biridir.

KELIB CHIQISH TARIXI VA XUSUSIYATLARI

Mustaqillikdan keyingi davrda yangi davlatni barpo etish uchun mustahkam huquqiy asos zarur edi. Ana shu ehtiyoj natijasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi yuz berdi. Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yilib, ikki bosqichda keng jamoatchilik tomonidan ko'rib chiqildi. Muhokamalar jarayonida **6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar** kelib tushdi va ularning muhim qismi loyiha matniga kiritildi. Yakunda ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining **XII chaqiriq XI sessiyasida** qabul qilindi. Sessiyada **250 ga yaqin deputatlar** ishtirok etib, har bir modda chuqur va prinsipial tarzda muhokama qilindi. Bu jarayon Konstitutsiyaning chin ma'noda xalq irodasi va ehtiyojlariga tayangan holda yaratilganini tasdiqlaydi.



Konstitutsiyasi **6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan** iborat holda qabul qilingan. Keyingi yillarda jamiyat taraqqiyoti, demokratik islohotlar va inson huquqlarini yanada mustahkamlash zarurati asosida unga bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritib borildi. Xususan, **2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan umumxalq referendumi** asosida Konstitutsiya yangi tahrirda qabul qilinib,

u **6 bo'lim, 27 bob va 155 moddadan** iborat shaklga keltirildi. Bu yangilanishlar inson manfaatlarini ustuvor qo'yish, ijtimoiy davlat tamoyillarini kuchaytirish va zamonaviy demokratik standartlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi.

Konstitutsiyaning asosiy xususiyati – uning insonparvar va demokratik ruhda yaratilganidadir. Unda inson huquqlari ustuvorligi, hokimiyatlar bo'linishi, qonun ustuvorligi kabi zamonaviy tamoyillar mujassam. Shu bilan birga, u milliy qadriyatlar va umuminsoniy prinsiplarning uyg'unligiga asoslanadi. Aynan shu jihatlari bilan Konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki jamiyatni birlashtiruvchi, davlat va xalq o'rtasida ishonchni mustahkamlovchi hamda taraqqiyot yo'lini belgilab beruvchi kuchli g'oyaviy asos vazifasini bajaradi.

DUNYO DAVLATLARIDA QANDAY NISHONLANADI

Konstitutsiya kuni turli davlatlarda davlat-huquqiy tizimning barqarorligini mustahkamlovchi, fuqarolik ongini rivojlantiruvchi muhim siyosiy-huquqiy institut sifatida nishonlanadi. Mazkur sana aksariyat mamlakatlarda nafaqat tantanaviy marosimlar, balki chuqur ma'rifiy va targ'ibot xarakteriga ega tadbirlar orqali o'tkaziladi. Asosiy e'tibor fuqarolarga Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini tushuntirish, uning jamiyat hayotidagi amaliy ahamiyatini ochib berish hamda qonun ustuvorligini ijtimoiy qadriyat darajasiga ko'tarishga qaratiladi.

Masalan, AQShda 17-sentabr kuni Konstitutsiya kuni sifatida nishonlanib, u asosan ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Federal darajada barcha ta'lim muassasalarida Konstitutsiya bo'yicha majburiy darslar o'tiladi, bu orqali yosh avlodda konstitutsiyaviy tafakkur shakllantiriladi.



Hindistonda 26-noyabr Konstitutsiya kuni doirasida davlat idoralari va ta'lim muassasalarida maxsus dasturlar tashkil etilib, fuqarolarda huquqiy savodxonlikni oshirishga tizimli yondashuv qo'llaniladi.

Rossiyada 12-dekabr rasmiy bayram sifatida e'tirof etilib, davlat organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan huquqiy targ'ibot ishlari olib boriladi.

Qozog'istonda esa 30-avgust Konstitutsiya kuni milliy bayram maqomiga ega bo'lib, unda davlat mustaqilligi, konstitutsiyaviy tuzum va fuqarolik birdamligi g'oyalari keng targ'ib qilinadi.

Ko'rib turganingizdek, Konstitutsiya kunini nishonlash faqat tarixiy sanani yodga olish emas, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni mustahkamlash, fuqarolarda qonunga ongli itoat etish madaniyatini shakllantirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning samarali vositasidir. Aynan shu jihatlari bilan ushbu sana zamonaviy davlatlarda mafkuraviy, huquqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega kompleks ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

O'ZBEKISTONDA NISHONLANISHI

O'zbekistonda Konstitutsiya kuni davlat va jamiyat hayotida muhim siyosiy-huquqiy sana sifatida keng ko'lamda va puxta reja asosida nishonlanadi. Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini aholi ongiga yetkazish, qonun ustuvorligi g'oyasini mustahkamlash hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Bayram doirasida respublika miqyosida tantanali yig'ilishlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari hamda rasmiy marosimlar tashkil etiladi.





Ta'lim muassasalarida Konstitutsiyaga bag'ishlangan maxsus darslar, ochiq mashg'ulotlar, bahs-munozaralar va viktorinalar o'tkaziladi. Yoshlar o'rtasida huquqiy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan tanlovlar tashkil etilib, ularning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari orqali

maxsus ko'rsatuvlar, tahliliy chiqishlar va huquqiy targ'ibot materiallari berib boriladi, bu esa bayramning ta'sir doirasini yanada kengaytiradi.

Davlat tashkilotlari va mehnat jamoalarida Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazilib, unda huquqshunolar, olimlar va mutaxassislar ishtirok etadi. Faol va fidoyi xodimlar rag'batlantiriladi, ularning jamiyat rivojiga qo'shgan hissasi e'tirof etiladi. Ayrim hududlarda milliy an'analarga xos tarzda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, madaniy chiqishlar hamda xalqona marosimlar tashkil etilishi bayramning umumxalq ruhini yanada kuchaytiradi.

Umuman olganda, Konstitutsiya kunining O'zbekistonda nishonlanishi faqat tantanaviy tadbirlar bilan cheklanmaydi. U jamiyatni huquqiy jihatdan ongli, mas'uliyatli va faol fuqarolar asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy-ma'rifiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

BAYRAMNING G'OYAVIY AHAMIYATI

Konstitutsiya kuni jamiyatda qonun ustuvorligi, adolat va inson qadrini ulug'lash g'oyalarini mustahkamlovchi muhim mafkuraviy omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi orqali fuqarolarda davlatga daxldorlik, qonunga hurmat va mas'uliyat hissi shakllanadi. Ushbu sana inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolik ongini yuksaltirish hamda yoshlar qalbida vatanparvarlik va huquqiy immunitetni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa jamiyatda barqarorlik, ijtimoiy ishonch va milliy birlik tobora mustahkamlanib boradi.



Namunaviy loyiha

**8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni
bayramlarini tashkil etish bo‘yicha
Namunaviy ssenariysi**

I. Tadbir nomi

“Konstitutsiya – adolat, erkinlik va taraqqiyot kafolati” mavzusidagi umumxalq bayram tadbiri

II. Tadbir shiori

“Konstitutsiya – hayot qomusi, adolat va erkinlik kafolati!”

III. Tadbirning maqsadi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunini yuqori saviyada tashkil etish orqali jamiyatda qonun ustuvorligi g‘oyasini mustahkamlash, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, inson qadrini ulug‘lash tamoyillarini keng targ‘ib etish hamda yosh avlod qalbida Konstitutsiyaga hurmat, fuqarolik mas‘uliyati va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishdan iborat.

IV. G‘oyaviy-ma‘naviy asosi

Konstitutsiya jamiyat hayotining huquqiy poydevori sifatida inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat darajasida mustahkamlaydi va adolat, tenglik hamda barqaror taraqqiyot tamoyillarini ta‘minlaydi; mazkur bayram orqali fuqarolarda huquqiy ong va madaniyat yuksalib, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch mustahkamlanadi, ayniqsa yoshlar ongida Konstitutsiya hayotiy yo‘l-yo‘riq, fuqarolik burchi va mas‘uliyat mezonlari sifatida shakllanadi.

V. Tadbirni tashkil etish bosqichlari

Konstitutsiya kunini yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida hududlarda kompleks tashkiliy va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar amalga oshirilib, markaziy maydonlar, ta‘lim muassasalari, davlat tashkilotlari va mahallalar Konstitutsiya ramzlari hamda huquqiy targ‘ibot materiallari bilan bezatiladi; tadbir o‘tkaziladigan maskanlar zamonaviy texnik vositalar va sahna jihozlari bilan ta‘minlanib, aholining keng qatlamlarini jalb etish uchun ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tizimli targ‘ibot yo‘lga qo‘yiladi, shuningdek huquqshunoslari, mutaxassislar, yoshlar yetakchilari va jamoatchilik vakillari o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, tadbirning mazmunan boy va ta‘sirchan o‘tishi ta‘minlanadi.

Asosiy tadbir ssenariysi



Tadbir dasturi mantiqiy izchillik asosida tashkil etilib, avvalo tantanali ochilish marosimida Konstitutsiyaning tarixiy ahamiyati va bugungi taraqqiyotdagi o‘rni yoritiladi; keyingi bosqichda inson huquqlari, adolat va qonun ustuvorligi g‘oyalari teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlari orqali badiiy ifoda etiladi, shu bilan birga badiiy chiqishlar va konsert dasturlari orqali bayramona ruh shakllantiriladi; interaktiv huquqiy maydonlar tashkil qilinib, “Mening huquqlarim”, “Qonun va javobgarlik”, “Adolatli jamiyat” kabi yo‘nalishlarda viktorinalar, rolli o‘yinlar va keys-tahlillar o‘tkaziladi, ijtimoiy aksiyalar orqali fuqarolarning faol

ishtiroki ta'minlanadi va tadbir yakunida Konstitutsiyaga hurmat hamda sadoqat g'oyalari umumlashtiruvchi xulosa bilan mustahkamlanadi.

VI. Axborot-targ'ibot ishlari

Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tadbirlarni keng yoritish maqsadida televideniye, radio va internet platformalari orqali maxsus ko'rsatuvlar, chiqishlar va reportajlar tashkil etilib, ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy videoroliklar, qisqa tushuntiruvchi kontentlar, fleshmob va chellenjlar tizimli ravishda yo'lga qo'yiladi, shuningdek, blogerlar, jurnalistlar va jamoatchilik faollari jalb qilinishi orqali targ'ibot qamrovi kengaytirilib, Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati aholiga sodda va ta'sirchan shaklda yetkaziladi.



VII. Ishtirokchilar

Tadbirda mahalla aholisi, yoshlar va o'quvchilar, talaba-yoshlar, huquqshunoslar va mutaxassislar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, san'at va madaniyat namoyandalari hamda nuroniylar keng jamoatchilik sifatida faol ishtirok etadi.

VIII. Kutilayotgan natijalar

Tadbir natijasida jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillariga hurmat kuchayadi, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati yuksaladi, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanib, ular o'z huquq va majburiyatlarini anglay boshlaydi, shu bilan birga jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va davlatga ishonch mustahkamlanib, Konstitutsiya kuni huquqiy ongni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-ma'rifiy maydonga aylanadi.



Izoh: Mazkur tadbir keng jamoatchilik, xususan yoshlar, mahalla aholisi, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, mutaxassislar hamda nuroniylar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning huquqiy ongini yuksaltirish, fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish va jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

“RAMAZON HAYITI”NING BIRINCHI KUNI – RO‘ZA HAYITI (IYD AL-FITR)

Ramazon hayiti musulmon dunyosida muqaddas oy – Ramazon yakunida nishonlanadigan, chuqur ma’naviy mazmunga ega bo‘lgan bayramdir. Uning asosiy mohiyati insonning ichki poklanishi, sabr-toqat orqali ruhiy kamolotga erishishi va jamiyatda mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bilan bog‘liq. Bu bayram orqali inson nafaqat ro‘za ibodatini yakunlaydi, balki o‘z qalbini g‘uborlardan tozalash, yaxshilik qilish va boshqalarga mehr ko‘rsatish zarurligini chuqur anglaydi.

Mazmun jihatidan Ramazon hayiti jamiyatda hamjihatlik, sahovat, bag‘rikenglik va insoniylik qadriyatlarini qaror toptiruvchi muhim ma’naviy hodisadir. Bugungi kunda ehtiyojmandlarga yordam berish, keksalarni e‘zozlash, qarindosh-urug‘lar holidan xabar olish kabi an‘analari orqali ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi. Ayniqsa, yoshlar uchun bu bayram hayotiy qadriyatlarni amalda o‘rganish, mehr-muruvvat va ijtimoiy mas‘uliyatni his qilish maktabi vazifasini bajaradi.

Ramazon hayitini nishonlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad – inson qalbini poklash, jamiyatda mehr-oqibat, saxovat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash hamda yosh avlodni ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir. Bu bayram orqali inson sabr, shukr, bag‘rikenglik va insonparvarlik kabi fazilatlarni chuqur anglaydi, jamiyatda o‘zaro hurmat va ijtimoiy mas‘uliyat hissi kuchayadi.

Ushbu bayramning asosiy vazifasi – uning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, yoshlar ongida mehr-muruvvat, xayr-ehson va ijtimoiy hamkorlik tushunchalarini shakllantirish hamda milliy-diniy an‘analarni asrab-avaylashga undashdir. Shu bilan birga, ta’lim va ma’rifiy tadbirlar orqali jamiyatda insoniylik, saxovat va bag‘rikenglik g‘oyalarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

KELIB CHIQISH TARIXI VA XUSUSIYATLARI



Ramazon hayitining kelib chiqishi islom dini shakllangan ilk davrlarga borib taqaladi. Ushbu bayram Islomning muqaddas oylaridan biri – Ramazon yakuniga bag‘ishlangan bo‘lib, hijriy taqvimning 2-yilidan boshlab nishonlana boshlagan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Muhammad (s.a.v.) Madinaga hijrat qilganlaridan so‘ng, mavjud bayramlar

o‘rniga aynan Ro‘za hayiti va Qurbon hayitini joriy etganlar. Shu tariqa bu bayram musulmonlar hayotida muhim diniy va ma‘naviy sana sifatida qaror topgan.

Bu ayyom ro‘za ibodatining yakuni sifatida shakllangan bo‘lib, uning tarixiy mohiyati insonning o‘zini tiyishi, sabr-toqat sinovidan o‘tishi va ruhiy poklanishga erishishi bilan bog‘liq. Asrlar davomida bu bayram turli xalqlar madaniyati bilan uyg‘unlashib, boy an‘ana va urf-odatlar bilan boyidi. Bugungi kunda u nafaqat diniy marosim, balki jamiyatda mehr-oqibat, saxovat va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlovchi muhim ma‘naviy hodisa sifatida nishonlanib kelmoqda.

DUNYO DAVLATLARIDA QANDAY NISHONLANADI



Ramazon hayiti dunyoning deyarli barcha musulmon mamlakatlarida muhim diniy bayram sifatida keng nishonlanadi, biroq uning o‘tkazilish shakllari har bir xalqning madaniyati va an‘analari bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Asosiy jihat o‘zgarmaydi ya‘ni hayit tongi jamoaviy namoz bilan boshlanadi, so‘ng odamlar bir-birini tabriklab, yaqinlari holidan xabar oladi va ehtiyojmandlarga yordam ko‘rsatadi.

Masalan, Saudiya Arabistonida hayit davlat miqyosida keng nishonlanib, masjidlarda ulkan jamoaviy namozlar o‘qiladi, xayriya tadbirlari faol tashkil etiladi.

Turkiyada bu bayram “Shakar bayrami” nomi bilan mashhur bo‘lib, bolalarga shirinliklar ulashish, qarindoshlarni ziyorat qilish an‘anaga aylangan.

Indoneziyada esa “Lebaran” nomi bilan nishonlanib, millionlab odamlar o‘z vatani va oilasi bag‘riga qaytadi, bu jarayon ijtimoiy birlikni kuchaytiradi.

Pokiston va Bangladeshda hayit bayrami keng xalq sayillari, yangi kiyimlar va oilaviy dasturxonlar bilan o‘tadi.

Misrda esa ko‘cha bayramlari, bolalar uchun ko‘ngilochar tadbirlar tashkil etiladi.

Umuman olganda, dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Ramazon hayiti barcha joyda bir maqsadga ya‘ni insonlarni birlashtirish, mehr-oqibatni kuchaytirish va jamiyatda hamjihatlik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'ZBEKISTONDA NISHONLANISHI



Ramazon hayiti O'zbekistonda xalqona ruh, milliy an'ana va diniy qadriyatlar uyg'unligida keng nishonlanadi. Bayram tongi masjidlarda jamoaviy hayit namozi bilan boshlanadi, so'ng odamlar bir-birini muborakbod etib, yaqinlari, qo'ni-qo'shnilari va qarindosh-urug'lari holidan xabar oladi. Ayniqsa, keksalarni ziyorat qilish, ota-onaga

hurmat ko'rsatish va oilaviy davralarda birlashish bu bayramning ajralmas qismidir. Bu kunda dasturxonlar yozilib, milliy taomlar tayyorlanadi, bolalarga sovg'alar beriladi. Ehtiyojmand oilalarga yordam ko'rsatish, xayr-ehson qilish, mehr-muruvvat ko'rsatish kabi ezgu amallar keng yoyiladi. Mahallalarda, jamoat joylarida bayramona muhit yaratiladi, insonlar o'rtasida samimiylik va hamjihatlik kuchayadi.

O'zbekistonda Ramazon hayiti faqat diniy marosim sifatida emas, balki jamiyatni birlashtiruvchi, insoniylik, saxovat va bag'rikenglik g'oyalarini mustahkamlovchi muhim ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

G'OYAVIY AHAMIYATI

Ramazon hayiti insonni ezgulikka chorlaydigan, jamiyatda mehr-oqibat, saxovat va bag'rikenglik qadriyatlarini mustahkamlovchi muhim ma'naviy omil hisoblanadi. Bu bayram orqali inson qalbida sabr, shukr va poklik tushunchalari chuqurlashadi, o'zaro hurmat va hamdardlikka asoslangan ijtimoiy munosabatlar kuchayadi. Ayniqsa, u yoshlar ongida insonparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va milliy-diniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirib, ularni jamiyat hayotida faol va ongli ishtirok etishga yo'naltiradi.



Shu jihatdan Ramazon hayiti jamiyat ma'naviy muhitini boyituvchi, insoniylik tamoyillarini mustahkamlovchi va ijtimoiy uyg'unlikni kuchaytiruvchi muhim g'oyaviy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

“QURBON HAYITI”NING BIRINCHI KUNI – QURBON HAYITI (IYD AL-ADHA)

Qurbon hayiti musulmonlar hayotida chuqur ma'naviy mazmunga ega bo'lgan muqaddas bayramlardan biri bo'lib, uning mohiyati Allohga sadoqat,

fidoyilik va itoat g'oyalariga asoslanadi. Ushbu bayram insonning ichki poklanishi, o'z nafsini tiyishi va Yaratganga yaqinlashishga intilishi bilan bog'liq bo'lib, qurbonlik amali orqali bu tushunchalar amaliy ifodasini topadi. Qurbonlik qilish – bu nafaqat diniy marosim, balki insonning ixlosi, saxovati va boshqalarga yaxshilik qilishga bo'lgan tayyorligini namoyon etuvchi muhim qadriyatdir.

Ushbu bayram jamiyatda mehr-muruvvat, hamdardlik va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlovchi muhim ma'naviy hodisa hisoblanadi. Bu kunda ehtiyojmandlarga yordam berish, oila va mahallada birdamlikni kuchaytirish, insoniylik va saxovatni namoyon etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar uchun bu bayram ma'naviy tarbiya maktabi bo'lib, ular orqali fidoyilik, mehr-muhabbat, ijtimoiy mas'uliyat va diniy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlar shakllanadi.

Qurbon hayitini nishonlashdan ko'zlangan asosiy maqsad – inson qalbida Allohga sadoqat, ixlos va fidoyilik tuyg'ularini mustahkamlash, jamiyatda mehr-muruvvat, saxovat va hamjihatlik muhitini rivojlantirishdir. Bu bayram orqali insonlar o'zaro yordam, hamdardlik va insonparvarlik kabi yuksak fazilatlarni chuqur anglaydi, yosh avlod esa diniy va ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalanadi.

Ushbu bayramning asosiy vazifasi – uning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, qurbonlik, ehson va yordam ko'rsatish an'analarini targ'ib qilish hamda yoshlar ongida saxovat, ijtimoiy mas'uliyat va insoniylik tushunchalarini shakllantirishdir. Shu bilan birga, oila va mahalla doirasida hamjihatlikni mustahkamlash, muhtojlarga ko'mak berish orqali jamiyatda ezgulik va birdamlik qadriyatlarini qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

KELIB CHIQISH TARIXI

Qurbon hayitining kelib chiqishi insoniyat tarixida chuqur ma'naviy mazmunga ega bo'lgan ulkan voqea bilan bog'liq. U Islomda Ibrohim (a.s.)ning Alloh amriga bo'lgan cheksiz itoati va sadoqatining oliy namunasiga asoslanadi. Rivoyatlarga ko'ra, Ibrohim (a.s.) Alloh yo'lida eng aziz narsasi – o'g'lini qurbon qilishga tayyor bo'ladi. Bu esa inson uchun eng og'ir sinovlardan biri sifatida talqin qilinadi. Ammo Alloh uning ixlosi va sadoqatini qabul qilib, o'g'li o'rniga qurbonlik uchun jonliq ato etadi.

Bu voqea Qurbon hayitining tarixiy va ma'naviy ildizini tashkil etadi. Shu asosda musulmonlar har yili ushbu bayramni nishonlab, qurbonlik qilish orqali Allohga bo'lgan sadoqatini, itoatini va shukronaligini ifoda etadilar. Qurbonlik amali nafaqat diniy marosim, balki insonning o'z nafsini yengishi, fidoyilikka

tayyorligi va boshqalarga yaxshilik ulashishga bo'lgan ichki ehtiyojining ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu jihatdan Qurbon hayiti tarixan shakllangan, ammo bugungi kunda ham o'zining chuqur g'oyaviy va tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelayotgan muhim ma'naviy hodisa hisoblanadi.

DUNYO DAVLATLARIDA NISHONLANISHI

Qurbon hayiti dunyoning turli mamlakatlarida umumiy diniy mazmun asosida, ammo milliy an'analar bilan uyg'un holda nishonlanadi. Bayramning asosiy qismi – jamoaviy hayit namozi, qurbonlik qilish va ehson tarqatish barcha musulmon jamiyatlarida bir xil mazmunga ega. Shu bilan birga, har bir mamlakatda uning o'tkazilish shakli o'ziga xos ijtimoiy va madaniy xususiyatlar bilan boyigan.

Masalan, Saudiya Arabistonida Qurbon hayiti Haj ibodati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, millionlab musulmonlar Makkada to'planadi va qurbonlik marosimlari keng miqyosda amalga oshiriladi. Turkiyada bayram kunlari qarindoshlarni ziyorat qilish, bolalarga sovg'alar berish va xayr-ehson qilish an'anaviy tus olgan. Indoneziya, Pokiston va Bangladeshda esa ommaviy qurbonlik tadbirlari tashkil etilib, go'sht muhtojlarga tarqatiladi, jamoaviy bayram muhitiga katta e'tibor qaratiladi.

Umuman olganda, dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, Qurbon hayiti har bir hududda o'ziga xos tarzda nishonlansa-da, uning tub mohiyati o'zgarmaydi. U barcha joyda insonlarni birlashtirish, saxovat va hamjihatlikni mustahkamlash hamda jamiyatda insoniylik qadriyatlarini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

G'OYAVIY MAZMUN-MOHIIYATI

Qurbon hayitining g'oyaviy mazmuni insonning Allohga bo'lgan sadoqati, ixlosi va fidoyiligini ulug'lashga qaratilgan. Bu bayram orqali inson o'z nafsini tiyish, eng aziz narsasidan ham voz kecha olish darajasidagi e'tiqod va ishonchni anglaydi. Qurbonlik amali esa nafaqat diniy marosim, balki saxovat, mehr-muruvvat va boshqalarga yaxshilik ulashishga tayyorlik ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Mazmun jihatidan Qurbon hayiti jamiyatda ijtimoiy tenglik, hamdardlik va o'zaro yordam g'oyalarini mustahkamlaydi. Bayram orqali boy va kambag'al o'rtasidagi masofa qisqaradi, ehson va yordam orqali insoniylik qadriyatlari amalda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, u yoshlar ongida ijtimoiy mas'uliyat, insonparvarlik va ma'naviy poklik tushunchalarini shakllantirib, jamiyatda birdamlik va hamjihatlik muhitini kuchaytiruvchi kuchli g'oyaviy omil sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Yangi O'zbekistonda umumxalq bayramlari jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida nafaqat madaniy an'ana, balki kuchli g'oyaviy va ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Navro'z, Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Ramazon va Qurbon hayiti kabi bayramlar xalqni yagona maqsad atrofida birlashtiradi, milliy o'zlikni anglashni chuqurlashtiradi va jamiyatda ma'naviy uyg'unlikni ta'minlaydi. Bu bayramlar orqali inson o'z tarixiy ildizlariga qaytadi, ajdodlar merosini anglaydi va kelajakka nisbatan mas'uliyat hissini his etadi. Shu jihatdan umumxalq bayramlari nafaqat quvonch va tantana, balki millat ruhini mustahkamlovchi, jamiyatni ichdan birlashtiruvchi kuchli ma'naviy omil sifatida ahamiyat kasb etadi

Umumxalq bayramlarining eng muhim jihati – ularning tarbiyaviy va mafkuraviy ta'siridir. Bayramlar orqali yosh avlod ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, saxovat va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlar shakllanadi. Ular nafaqat kuzatuvchi, balki bayram jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu esa yoshlarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va jamiyat hayotiga daxldorlik hissini kuchaytiradi. Bayram tadbirlari doirasida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, ijtimoiy aksiyalar, sahna ko'rinishlari va madaniy dasturlar orqali yoshlarning dunyoqarashi kengayadi, ularning ma'naviy immuniteti mustahkamlanadi.

Bayramlarning samaradorligi ularning tashkiliy va metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilishiga bevosita bog'liq. Maqsad va vazifalarning aniq belgilanishi, mazmun va shakl uyg'unligi, ramz va timsollarning o'rinli qo'llanilishi bayramning ta'sirchanligini oshiradi. Muhit va makon tanlovi, estetik bezaklar, milliy an'analar va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unligi esa ishtirokchilarda chuqur hissiy va ma'naviy taassurot uyg'otadi. Ayniqsa, interaktiv usullar – viktorinalar, ijodiy tanlovlar, ijtimoiy loyihalar bayramni jonlantirib, uni har bir insonning shaxsiy tajribasiga aylantiradi.

Eng muhimi, umumxalq bayramlari jamiyatda ijtimoiy birdamlik va barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida xizmat qiladi. Turli millat va ijtimoiy qatlam vakillarining bir joyda jam bo'lib, birgalikda bayram qilishi o'zaro hurmat va totuvlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, Ramazon va Qurbon hayiti kabi bayramlarda saxovat, ehson va yordam g'oyalari orqali jamiyatda insoniylik va hamdardlik muhiti yanada chuqurlashadi.

Xulosa qilib aytganda, umumxalq bayramlari – bu shunchaki dam olish yoki tantana emas. U insonning ichki dunyosiga ta'sir etuvchi, uni ezgulikka, birlikka va yuksak qadriyatlarga yo'naltiruvchi kuchli ijtimoiy-ma'naviy mexanizmdir. Agar bayramlar mazmunan boy, g'oyaviy jihatdan puxta va zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilsa, ular jamiyat taraqqiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

UMUMXALQ BAYRAMLARINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA
NAMUNAVIY SSENARIY LOYIHASI
(namunaviy, hududlar uchun moslashuvchan shakl)

I. Tadbir nomi

Umumxalq bayramlarini yuqori saviyada tashkil etish tadbiri nomi yoziladi.

II. Tadbirning maqsadi

Umumxalq bayramlarini puxta va yuqori saviyada tashkil etish orqali jamiyatda ijobiy ijtimoiy muhitni mustahkamlash, aholining turli qatlamlarida ezgulik, mehr-oqibat va birdamlik tuyg‘ularini kuchaytirish, shu bilan birga, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat hamda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishdan iborat.

III. G‘oyaviy-ma’naviy asosi

Umumxalq bayramlari jamiyat hayotida alohida ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘lib, inson ongida yangilanish, birdamlik va ezgulik kabi tushunchalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bayram tadbirlari jarayonida aholining turli qatlamlari o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik kuchayadi, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar yanada mustahkamlanadi. Natijada jamiyatda ijobiy ruhiy muhit shakllanib, umumiy maqsadlar atrofida jipslik ta’minlanadi.

IV. Tadbir shiori

“Bayram – birlik, ezgulik va taraqqiyot timsoli!”

V. Tadbirni tashkil etish bosqichlari

Tadbirni samarali tashkil etish uchun hududlarda kompleks tashkiliy ishlar amalga oshiriladi. Jumladan, markaziy maydonlar, ko‘chalar va mahallalar bayramona bezatilib, umumiy estetik muhit shakllantiriladi. Shu bilan birga, tadbir o‘tkaziladigan maskanlar oldindan tayyorlanib, zarur tashkiliy va texnik sharoitlar yaratiladi.

Axborot-targ‘ibot ishlari ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali tizimli ravishda olib borilib, aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlar tadbirlarga jalb etiladi. Tashkilot va muassasalar o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi tadbirning yuqori saviyada o‘tkazilishiga xizmat qiladi.

Asosiy tadbir ssenariysi

Tadbir dasturi mantiqiy ketma-ketlik asosida shakllantiriladi. Avvalo, ochilish marosimi tashkil etilib, unda bayramning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Keyingi bosqichda teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlari orqali bayram g‘oyasi badiiy shaklda ifodalanadi.

Shuningdek, badiiy chiqishlar va konsert dasturi aholiga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlaydi. Interaktiv tadbirlar va turli tanlovlar ishtirokchilar faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy aksiyalar orqali esa ezgulik va hamjihatlik g‘oyalari amalda namoyon etiladi. Tadbir yakunida umumiy xulosa va bayram ruhini mustahkamlovchi chiqishlar bilan yakunlanadi.

VI. Axborot-targ‘ibot ishlari

Bayram tadbirlarini keng yoritish maqsadida televideniye va radio kanallari orqali chiqishlar tashkil etiladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda faol targ‘ibot ishlari olib borilib, aholiga tezkor va ta’sirchan axborot yetkaziladi.

Shu bilan birga, videoroliklar va reportajlar tayyorlanib, jamoatchilikka taqdim etiladi. Bloggerlar va jamoatchilik faollarining ishtirokini ta’minlash orqali targ‘ibot qamrovi yanada kengaytiriladi.

VII. Ishtirokchilar

Tadbirda mahalla aholisi, yoshlar va o‘quvchilar, san’at va madaniyat vakillari, davlat tashkilotlari vakillari hamda nuroniylar faol ishtirok etadi.

VIII. Kutilayotgan natijalar

Tashkil etilgan bayram tadbirlari natijasida jamiyatda bayramona ruh yanada kuchayadi, aholi o‘rtasida birdamlik va hamjihatlik mustahkamlanadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi ortib, oila va mahalla muhitida ijobiy o‘zgarishlar yuzaga keladi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat va e’tibor yanada kuchayadi.